Reading is considered to be important in learning English, as EFL learners cannot have an opportunity to communicate with native speakers, but they have admission to their literature (Tavakoli, 2014;), which enables them to improve their English reading skills. However, understanding the text, and getting the main idea can be challenging for students at elementary levels, reading without comprehension is insignificant says Katim (1997; cited in Khaki, 2014 ;). There are various strategies that are used by high proficiency level students, to help to understand the text in advance. Scientists define reading comprehension in diverse ways. Tompkins (2011) stated that comprehension is a process that demands knowledge of phonology, syntax, semantics, and pragmatics (Gilakjani, Sabouri, 2016 ;). Many experts tested the effect of reading strategies and reading skills on reading comprehension and concluded that there is a vital role of reading strategies in comprehending the text. (Khaki, 2014; Abdelhalim, 2017; Pourhosein & Banou,2016; Mumtaz & Garner, 2010; Aziza & razali, 2019; Meniado, 2016; Tavakoli, 2014; Mistar, Zuhairi & Yanti, 2016; Zare, 2013; Hamra & Syatriana, 2010;). Reading strategy is a technique or method that is used by readers to comprehend the given material better, according to Anderson reading strategies are the mental tasks that students use to get meaning from the texts. (1999, cited in Gilakjani, Sabouri, 2016 ;) Commonly there are 3 types of reading strategies Global Reading Strategies (GLOB), Problem-Solving Strategies (PROB), Support Reading Strategies (SUP) (Tavakoli,2014; Aziza & Razali, 2019; Meniado,2016;). In addition, there are factors that influence learners' reading comprehension: the difficulty of the reading text, environmental effects, anxiety during reading comprehension, interest and motivation, word recognition speed, and medical problems (Gilakjani, Sabouri, 2016). On the other hand, Semtin and Maniam divided reading strategies into various types, such as Cognitive Reading Strategies (e.g., planning and goal setting, tapping prior knowledge, asking questions and making predictions, constructing gist, monitoring, revising meaning, reflecting and relating, and revising meaning) Planning Strategies (i.e., pausing and thinking about reading, trying to stay focused on reading, scanning the text, reading slowly and carefully and determining what to read) and Monitoring Strategies (i.e., rereading the text, paying attention to reading, and asking oneself questions),(2015, cited in Aziza & Razali,2019). Oxford's (1990) model of language learning strategies were: memory strategies, cognitive strategies, compensation strategies, metacognitive strategies, affective strategies, and social

[1]*Abdurashitova Zemfira Naumovna* – English teacher with high category at School 3 at Turaqurgan, Namangan region, Uzbekistan.

[2] *Fazlidinova Zulfiyakhon Dilmurod qizi* - Student, English filology faculty, Namangan state university, Namangan region, Uzbekistan.

strategies (Tavakoli,2014). This article provides a review of several studies on reading comprehension, reading strategies, and skills, additional factors that influence EFL learners' reading obtained from Google Scholars and the ERIC website.

Literature review.

Reading comprehension.

Reading is an inseparable part of English. And, according to many scientists, reading is the meaning getting from the printed page (Rubin, 1982; Harris & Sipay, 1980; Smith,1971; Fries, 1963; Hittleman, 1978; cited in Hamra & Syatriana, 2010; Pressley, 2000; Birsch, 2011; cited in Gilakjani, Sabouri, 2016;). However, every student gets a different meaning from the text, as each of them has a different level of comprehension, thinking process in their mind, and use of various skills. There are some factors and skills that have a huge effect on reading. Reading skills are word recognition, fluency, lexical knowledge, and pre-existing knowledge. As stated by Tompkins comprehending needed four skills phonology, syntax, semantics, and pragmatics (2011; cited in Gilakjani, Sabouri, 2016;). Consistent with the Kolker affect, cognition and language are the interactive factors that influence reading comprehension Affective behaviors are related to feelings, cognitive behaviors to thought, and linguistic behaviors to language (1979; cited in Hamra & Syatriana, 2010;). Some factors affect reading comprehension skills. They are the complexity of the reading text, environmental influences, anxiety during reading comprehension, interest and motivation, decoding or word recognition speed, and medical problems. (Gilakjani, Sabouri, 2016;) Difficultness of the text can lower students' level of understanding as text should be selected according to students' English level. In order to understand well students' attention and focus must be concentrated on only on the reading passage that's why the environment should be a calm and safe place for readers. The pressure which is put on students during exams or control work affect negatively to students as they feel a lack of time and worry about the result of the work. Teachers can motivate their students by providing interesting text, that arise students' willingness to read the passage and various tasks can help better analyze what is read. The next factor is decoding of words, here students need vocabulary knowledge related to the topic of the text, otherwise, they should guess or predict the meaning of the words from the context. The last factor is medical problems that affect pessimistically to the reader.

Reading strategy and types of reading strategies.

Reading strategies were defined in various ways by different scholars and the most suitable description was given by Karami in 2008, according to his reviews reading strategy is characterized as the conscious, inside, variable, mental methods pointed at moving forward the effectiveness of compensating for the breakdowns in perusing comprehension on specific perusing assignments and in particular settings. Anderson (1999 cited in Gilakjani, Sabouri, 2016,) described perusing strategies as the mental activities that learners apply to make meaning from the text.

The variety between good and poor learners are reading strategies considered by Karami (2008, cited in King 2008). To promote poor readers Brown (2001, cited in Karami, 2008) represents ten reading strategies that students use to improve their reading ability;

1.Discover the reason of reading.
2.Utilize graphemic rules and designs to help in bottom-up reading.
3.Utilize diverse noiseless reading procedures for generally quick reading/
4.Skim the content for fundamental thoughts.
5.Check the content for particular data.
6.Utilize semantic mapping or clustering.
7.Figure once you are not certain.
8.Analyze lexicon.
9.Recognize between exacting and inferred implications.
10.Capitalize on talk markers to prepare relationships.

Sheorey and Mokhtari (2001) came up with a classification of reading strategies into three categories: cognitive, metacognitive, and support strategies. Meanwhile,

Marzuki, Alim, and Wekke separated reading strategies into two groups,i.e, direct and indirect techniques. Direct strategies consisted of memory techniques, and cognitive and compensation procedures. The indirect methodologies are composed of metacognitive strategies and affective and social techniques. Among these strategies, cognitive and metacognitive methodologies are the foremost well-known techniques utilized in reading.

Cognitive strategies in reading distinguished are repeating, getting the idea rapidly (skimming and scanning), utilizing resources for receiving and sending messages, thinking deductively, analyzing expressions, analyzing constructively, translating, elaborating, exchanging, taking notes, summarizing and highlighting. Using these strategies can make learners be proficient readers.

To test the use and effect of cognitive strategies on EFL readers of an Islamic university in Indonesia Marzuki, Alim and Wekke carry out the study, in which classes were divided into 2 cycles, and each cycle consisted of planning, and implementation, observation, and reflection. According to the results of the first cycle, 56,7% of students gained scores and 63,3% participated actively. Cycle 2 demonstrated that 83,3% of students obtained scores and 86,7% took part in classes actively.

Metacognition as a term was represented by Flavell in one of his articles and was described as “one’s knowledge concerning one’s cognitive process and outcomes or anything related to them” (Iwai,2011). Suitable material, paying attention, realizing language, organizing, reasoning specific aims and objectives, searching for practice opportunities, self-monitoring, and self-evaluating are composed to be metacognitive strategies (Marzuki, Alim, and Wekke,2017).

In the study which was presented by Nash-Ditzel (2010) that metacognition is separated into 3 elements declarative (knowing “that” what to read) knowledge, procedural (“how” to implement reading strategies), and conditional knowledge (knowing “why” prereading techniques are crucial). In accordance with Yuko Iwai metacognitive strategies are divided into 3 clusters, such as planning, monitoring, and evaluating. Planning occurs before reading and readers guess the meaning from the title, heading, or picture and take an overview of the text and use background knowledge. Observing happens in the reading process understanding the vocabulary self-questioning, and summarizing are used to discover the main issues from the text. And readers conclude and assess by evaluating the cluster. Additionally, metacognitive strategy has 3 categories which we can divide reading strategies: SUP (the support reading strategy, GLOB (the global reading strategy), and PROB (problem-solving reading strategy) (Tavakoli, 2014; Aziza & Razali,2019). Meniado tested the effect of metacognitive strategies in Saudia Arabia college and revealed that respondents often use metacognitive techniques and PROB strategies were mostly used among readers (2016). Nash-Ditzel provided the case study in 5 colleges and concluded that the use of metacognitive strategies assisted to improve students' reading comprehension and reading.

IV.Conclusion

To sum up, from the review of the several carefully selected research articles, it can be concluded that through reading EFL learners can learn the literature of English-speaking countries. There are plenty of factors that affect students and as many strategies to significantly improve reading comprehension and deal with reading texts. Several studies were accomplished to check the use and effect of reading strategies. In addition, there are various types of reading techniques and the most preferred are cognitive and metacognitive reading methodologies.

References:

1. Abbas Pourhosein Gilakjani & Narjes Banou Sabouri, A Study of Factors Affecting EFL Learners’ Reading Comprehension Skill and the Strategies for Improvement; International Journal of English Linguistics; Vol. 6, No. 5; 2016 ISSN 1923-869X E-ISSN 1923-8703 Published by Canadian Centerof Science and Edication
2. Abdul Gafur Marzuki, Nur Alim, Ismail Suardi Wekke, 2018, Improving the reading comprehension through cognitive Reading strategies in language class of coastal area

in indonesia, ICFSS-2017, IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 156(2018) 012050, doi :10.1088/1755-1315/156/1/012050
3. Arifuddin Hamra and Eny Syatriana, developing a model of teaching reading comprehension for EFL students,Teflin Journal, Volume 21, Number 1, February 2010, 28, pp27-40.
1. 4. Aziza M. Ali & Abu Bakar Razali,2019, A Review of Studies on Cognitive and Metacognitive Reading Strategies in Teaching Reading Comprehension for ESL/EFL Learner; English Language Teaching; Vol. 12, No. 6; 2019 ISSN 1916-4742E-ISSN 1916-4750 Published by Canadian Center of Science and Education, doi: 10.5539/elt.v12n6p94 URL: https://doi.org/10.5539/elt.v12n6p94
2. 5. Esmaeil Momtaz (Aberdeen) / Mark Garner (Aberdeen), 2010, Does Collaborative Learning Improve EFL Students'Reading Comprehension? Journal of Linguistics and Language Teaching JLLT Volume 1 (2010) Issue 1,p 15-33.
7. Hossein Tavakoli,2014; The Effectiveness of Metacognitive Strategy Awareness in Reading Comprehension: The Case of Iranian University EFL Students The Reading Matrix © 2014 Volume14, Number 2, September 2014;
8. Joel C. Meniado, Metacognitive Reading Strategies, Motivation, and Reading Comprehension Performance of Saudi EFL Students 2016 English Language Teaching; Vol. 9, No. 3; 2016 Published by Canadian Center of Science and Education,February 14, doi: 10.5539/elt.v9n3p117,URL: http://dx.doi.org/10.553lt.v9n3p117
9. Junaidi Mistar, Alfan Zuhairi& Nofita Yanti, Strategies Training in the Teaching of Reading Comprehension for EFL Learners in Indonesia English Language Teaching; Vol. 9, No. 2; 2016 ISSN 1916-4742 E-ISSN 1916-4750 Published by Canadian Center of Science and Education doi:10.5539/elt.v9n2p44 URL: http://dx.doi.org/10.5539/elt.v9n2p49
10. Hossein Karami,2008, READING STRATEGIES: WHAT ARE THEY? .
11. Nasrin Khaki,2014,Improving Reading Comprehension in a Foreign Language: Strategic ReaderThe Reading Matrix © 2014 Volume 14, Number 2, September 2014
12. Pezhman Zare,2013, Exploring Reading Strategy Use and Reading Comprehension Success among EFL Learners, World Applied Sciences Journal 22 (11): pp ;1566-1571, 2013, ISSN 1818-4952, © IDOSI Publications, 2013, DOI: 10.5829/idosi.wasj.2013.22.11.1493
13. Safaa M. Abdelhalim,2017, Developing EFL Students' Reading Comprehension and Reading Engagement: Effects of a Proposed Instructional Strategy; ISSN 1799-2591,Theory and Practice in Language Studies, Vol. 7, No. 1, pp. 37-48, January 2017,DOI: http://dx.doi.org/10.1750..7/tpls.0701.05
14. Susan Nash-Ditzel,2010, Metacognitive Reading Strategies Can Improve Self-Regulation, Journal of College Reading and Learning, 40 (2), Spring 2010.
15. Yuko Iwai, 2011, The Effects of Metacognitive Reading Strategies: Pedagogical Implications for EFL/ESL Teachers, The Reading Matrix © 2011,Volume 11, Number 2, April 2011

© Z.N. Abdurashitova, Z.D. Fazlidinova, 2022.

HOZIRGI O`ZBEK TILIDA AKT TERMINLARI LUG`ATINI YARATISH MASALASI

M.J. Amrullayeva[1]

Hozirgi vaqtda kompyuterlashtirish jarayoni dunyo mamlakatlarida turli darajada kechmoqda. AKT keng ma'noda insoniyat faoliyatining barcha sohalarida, asosan, kompyuterlar va telekommunikatsiya aloqa vositalari yordamida axborotni qayta ishlash bilan bog`liq fan, texnikaning xilma-xil tarmoqlari birligini o`zida namoyon etadi. Kompyuterlar inson faoliyatida katta qulayliklar, yengilliklar yaratadi.

Kalit so`zlar: hozirgi, tilida, akt, terminlari.

Ta'lim samaradorligini oshirishda, yosh avlodni jahon talablari darajasidagi yetuk mutaxassis kadrlar sifatida tayyorlashda, mamlakatimizga kirib kelayotgan har qanday avtomatlashgan texnologiyani boshqarishda axborot texnologiyalarini mukammal bilish talab etiladi. AKT yordamida yoshlar, avvalo, jahon miqyosidagi bilimlar, ilmiy-texnologik jarayonlar bilan tanishadilar, bilimlarini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo`ladilar.

AKT sohasining jadal su'ratlar bilan rivojlanishi va uni inson faoliyatiga har tomonlama chuqur kirib borishi tilda ham katta o`zgarishlarni yuzaga keltirdi. Xususan, hozirgi kunda o`zbek tili leksikasining tez o`zgaruvchan va faol qatlamini AKT terminologiyasi sohasiga doir leksik birliklar tashkil etadi. Hozirgi kunga qadar bo`lgan davrda kompyuter o`rnida EHMdan foydalanilgan. Aslida kompyuter so`zi "to compute"- sanamoq, hisoblamoq; hisob-kitob qilmoq ma'nolarida qo`llanilgan. AKT sohasining bevosita boshqaruv tizimiga xos kasb-korlarni anglatuvchi terminlarni: network operator - aloqa operatori, information owner - axborot mulkdori, information resourse owner - axborot resurslari mulkdori, owner of information resources - axborot resurslari mulkdori, information network owner - axborot tarmoqlari mulkdori va h.k. Mazkur soha mutaxassisligiga doir terminlar: ICT engineer-AKT injener(muhandis), cybersquatter- kiberskvotter, manager-menejer, operator-operator, system engineer-tizim muhandisi va h.k.

Kasb - korni anglatuvchi AKT terminlarining strukturaviy-semantik taxliliga ko`ra yakka so`zli, qo`shma va birikma terminlardan iborat ekanligi aniqlandi. Ularning aksariyati baynalmilal o`zlashmalar hisoblanadi. Masalan, administrator, menejer, integrator, operator va shu kabilar. Ular sohaviy terminlar sifatida tilimizda qo`llanmoqda. Biroq, mazkur sohada paydo bo`lgan kasb nomlarini ifodalovchi terminlarning ma'nolari ochib berilishi ko`pincha tavsifiy xarakterga ega. Masalan, phiker- friker ingliz tilida qoidabuzar ma'nosida qo`llanadi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug`atida uning tavsifi quydagicha berilgan:

1.Friking mutaxassisi 2. Qoidabuzarlik ishlarida abonentga telefon orqali psixologik ta'sir qiladigan shaxs. Friking-bepul qo`ng`iroq qilish uchun telefonlarni va telefon tarmoqlarini buzib ochish. Oxirgi paytda har xil elektr tizimlarini (masalan, foydalanish nazorat tizimini)buzib ochish ham paydo bo`lgan.

Tizimli (Sistemaviy) blok (Protsessor) – kompyuterning asosiy qismi bo`lib, o`z ichiga quyidagi elementlarni jamlaydi. Ona plata' mikroprotsessor, qattiq disk (vinchester), Operativ xotira (OZU), CD-ROM (CD-RW), DVD-ROM, (DVD-RW), tashqi qurilmalar kontrolleri, shinalar, elektr ta'minoti bloki va boshqalar. Ona plata – asosiy elektron sxema bo`lib, unga tashqi qurilmalar kontrollerlari shina orqali ulanadi, unga mikroprotsessor, BIOS, operativ xotira' tizimli plataning mikrosxemalar to`plami, ikkinchi pog`ona kesh-hotira (kesh L2), shina razyomlari, tizimli soat hamda CMOS uchun elektr manbai (batareya), kiritish-chiqarish mikrosxemasi kabi elementlar tikiladi va tashqi qurilmalar kontrollerlari o`rnatiladi. Mikroprotsessor (CPU)

[1]*Amrullayeva Mohinur Jo`rabek qizi* - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o`zbek tili va adabiyoti universiteti lingvistika yo`nalishi 2-bosqich magistranti (O`zbekiston).

arifmetik-mantiqiy qurilma bo`lib, kompyuterning «yuragi» hisoblanadi. Dastur yordamida berilgan ma'lumotlarni o`zgartiradigan, hamma hisoblash jarayonlarini boshqaradigan hamda hisoblash ishlariga tegishli moslamalarning o`zaro aloqasini o`rnatadigan qurilma – mikroprotsessor deb ataladi. Qattiq disk (HDD) tashqi xotira hisoblanib, kompyuterda asosiy axborot saqlovchi qurilmadir. Unda barcha dastur va ma'lumotlar saqlanadi. Qattiq disklarda tashuvchilar aylanadigan ferromagnetik qatlam bilan qoplangan alyuminiyli va karamikali disklardan iborat bo`lgani uchun ko`pincha qattik disk deb ataladi. Qattiq disk o_lchamlari turlicha bo`lishi mumkin. Hozirgi kunda vinchesterlarning 80-1000 Gb dan 1 Tb gacha bo`lgan o`lchamdagi turlari mavjud. Operativ (tezkor) xotira (DDR) - bu protsessorning ishchi sohasidir. Unda ish vaqtidagi barcha dastur va ma'lumotlar saqlanadi. Operativ xotira kopincha vaqtinchalik xotira deb ham ataladi, chunki undagi dastur va ma'lumotlar faqat kompyuter yoqiqligida yoki kompyuter qayta yuklangunicha saqlanadi. CD-ROM (Compact Disk) va DVD-ROM (Digital Versatile Disk). Disklardagi ma'lumotlarni o`qish va ularga ma'lumotlar yozish uchun xizmlat qiluvchi qurilma. Dastlab bunday tashuvchilar ma'lumotlarni faqat o`qish uchun mo`ljallangan bo`lib, ulardagi ma'lumotlarni o`zgartish va qaytadan yozish imkoniyati yo`q edi. Hozir disk va disk yurituvchilarning ma'lumotlarni yozadigan (writeable) va ko`p marotaba yozadigan (rewriteable) modellari mavjud.

Kompyuterning qo`shimcha qurilmalari quyidagilardan iborat: Skaner bu ma'lumotlarni qog`ozli hujjatdan bevosita kompyuterga kiritish qurilmasidir. Matnlar, sxemalar, rasmlar, grafiklar, fotografiyalar va boshqa grafik axborotni kiritish mumkin. Skaner nusxa ko`chirish apparatiga o`xshab qog`ozli hujjatning tasviri nusxasini qog`ozda emas, balki elektron ko`rinishda yaratadi - tasvirning elektron nusxasi yaratiladi. Modem (Modulyator-Demodulyator) – telefon tarmog`i orqali boshqa kompyuterlar bilan axborot almashishni ta'minlaydi. Modem - aniq bir aloqa kanalida ishlatish uchun qabul qilingan signallarni to`g`ri (modulyator) va teskari (demodulyator) o`zgartirish qurilmasidir. Modem – axborotni uzatishda raqamli signalni analogli signalga' axborotni qabul qilishda esa analogli signalni raqamli signalga o_zgartiradi. Multimediya vositalari – kompyuter yordamida musiqa va ovozli ma'lumotlarni ko`rsatishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolmonova Z. Kompyuter lingvistikasi. -Toshkent-2019.
2. Lutfillayev M. Axborot texnologiyalari fanidan o`quv uslubiy majmua. Samarqand-2019.
3. Qosimov N. O`zbek tili ilmiy texnikaviy terminologiyasi masalalari. -T.: Fan,1985.
4. Hojiyev A. Termin tanlash mezonlari. -T.: Fan,1996.

© M.J. Amrullayeva, 2022.

BOSHLANG`ICH MATEMATIKA KURSIDA OG`ZAKI HISOBLASHGA O`RGATISHNING O`RNI

Sh.N. Ergashova[1], G.I. Ortiqova[2]

Maqolada boshlang`ich matematika kursida og`zaki hisoblashga o`rgatishning o`rni haqida ma'lumot berilgan.

*Kalit so`zlar:* matematika, ta'lim, og`zaki hisob, matematik tusubcha, o`qituvchi, o`quvchi.

Matematik ta'lim sohasi bo`yicha standart ko`rsatkichlar bolalarda natural sonlar va nol to`g`risida tasavvurni shakllantirish, puxta hisoblash ko`nikmalarini hosil qilish, amaliy masalalarni yechishda natural sonlarni va arifmetik amallarni qo`llay olishga o`rgatish, eng sodda geometrik shakllar hamda og`zaki hisoblash va matematik munosabat belgilaridan foydalana olish malakasini hosil qilish nuqtai nazaridan belgilandi.

Og`zaki hisoblashga doir mashg`ulotlarning samaradorligi mashqlarning hajmi va mazmunigagina emas, balki ularning berilishi va tekshirilishi, o`quvchilarning bilimini sinash, og`zaki va yozma mashqlarning almashtirib turilishiga ham bog`liqdir. Og`zaki hisoblash malakalarining uzluksiz takomillashib borishi uchun og`zaki va yozma hisoblash usullarini qo`llashda to`g`ri munosabat o`rnatish, chunonchi og`zaki hisoblash qiyin bo`lgandagina yozma hisoblash zarur. O`quvchilarning topshiriqni eshitib qabul qilishlarida o`qituvchi topshiriqni o`qib beradi, ular esa eshitadi. Bunda asosiy kuch xotiraga qaratiladi, bunday mashqlar juda foydali bo`lib, eshitish xotirasini rivojlantiradi.

Bolalarning og`zaki hisoblash malakalarini har doim tekshirib turish kerak. Og`zaki hisoblashga doir mashqlarni birinchi darslardanoq kiritilsa, samarasi ancha yuqori bo`ladi. O`quvchilarning og`zaki hisoblash malakalari turli-tuman mashqlarni bajarishlari jarayonida shakllanadi.

Asosiy matematik tushunchalar hosil qilish, sonlarning xossalarini va arifmetik amallarning qonunlarini o`rganish bilan bir qatorda boshlang`ich ta'limda bolalarda hisoblash malakalari hosil qilish doim eng muhim o`rin tutib kelgani hammaga ma'lum. Bolalarga hisoblashni o`rgatish sistemasi va metodikasida turli zamonlarda va turli mamlakatlarda prinsipial farqlar faqat og`zaki va yozma hisoblash usullarini aniqlashga, hamda tegishli malakalar hosil qilish yo`liga nisbatangina bo`lgan.

Har bir kishi uncha murakkab bo`lmagan hisoblashlarni "zehnda" tez va to`g`ri bajarishni bilishining amaliy ahamiyatidan tashqari, og`zaki hisobni o`zbek uslubshunoslari doim bolalarning arifmetika darslarida olgan nazariy bilimlarini chuqurlashtirishning yaxshi vositalaridan biri deb qaraydilar. Og`zaki hisob asosiy matematik tushunchalarni shakllantirishga sonlarning qo`shiluvchilardan, ko`paytuvchilardan iborat tarkibi bilan yanada chuqurroq tanishishga, arifmetik amallarning qonunlarini va boshqalarni yaxshi o`rganishga yordam beradi. Og`zaki hisob mashqlarga tarbiyaviy jihatdan ham yuksak baho berib kelingan: og`zaki hisob bolalarda fahm-farosat, zehn, diqqatning rivojlanishiga, bolalar xotirasini, aktivligini, chaqqonligini, sezgirlik va fikrlashda mustaqilligini rivojlantiradi deb hisoblangan.

Hozirgi zamon maktabida og`zaki va yozma hisoblar qanday o`rin tutishi kerak? Shu asosiy masala bilan bog`langan qanday xususiy masalalar maktab tajribasida tekshirib ko`rishni talab qiladi.?

Hisoblashning ikkala turi ham boshlang`ich matematika ta`limi sistemasida muhim ro`lini saqlashi kerak. Matematik ma'lumotnoma jadval o`quvchilar turmushda uchratadigan hollarning hammasini o`z ichiga ololmaydi. O`quvchilar mustaqil bajargan arifmetik shakl almashtirishlar ularga shakl almashtirishning o`zi nima

[1]*Ergashova Shalola Norpo`lot qizi* - Shofirkon tumani 29-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi (Buxoro, O`zbekiston).

[2]*Ortiqova Gulsanam Ilhomovna* - Shofirkon tumani 29-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi (Buxoro, O`zbekiston).

ekanini tushunishga yordam etadi, busiz o`quvchilarga jadvallarni tushunib olishning o`zi ham qiyin bo`ladi. Ammo dasturga hamda metodikaga maqsadga muvofiq o`zgarishlar kiritib, og`zaki va yozma hisoblashni o`rgatishni ratsionallashtirish zarur.

Bundan buyon yozma hisoblash usullarini, hozirgi dastur bo`yicha nazarda tutilganidek, ming ichida emas, balki, mumkin bo`lgancha ilgariroq, yuz ichida kiritish mumkinligini tekshirib ko`rish kerak. Mingni alohida konsentr qilib olishni bekor qilib, konsentrlarni kamaytirish imkonini ham tekshirish lozim.

Dasturdagi yozma hisoblashning ko`p xonali sonlarga taalluqli ba'zi xollarini qisqartirish masalasini qo`yishga jiddiy asoslar bor. Birinchi navbatda uch xonali songa ko`paytirish va bo`lishning ba'zi xollarini qisqartirish o`rinli bo`lsa kerak. Hisoblash usullari kichik sonlarga nisbatan qanday bo`lsa, katta sonlarga nisbatan ham shundayligicha qoladi. O`quvchilar kichik sonlar bilan ish ko`rganlarida bu usullarni to`la egallab oladilar. Agar o`quvchiga amaliyotda katta sonlar bilan hisoblash kerak bo`lib qolsa, u hisoblashni uddalay oladi. Hisoblash usullari o`quvchida paydo bo`lgan, faqat butun hisoblash jarayoni davomida diqqat-e'tiborni saqlash kerak bo`ladi, xolos.

Shuni ham qayd qilib o`tish lozimki, maktabda bolalar (katta sonlar bilan) yozma hisoblashlarda ko`p xato qiladilar; buning sababi ular hisoblashni bilmaganliklaridan emas, balki hisoblash jarayoni ustida o`z diqqatlarini tutib tura olmaganliklaridadir.

Og`zaki mashqlar o`qituvchiga darsda o`quvchilarni biroz erkin va qulay tutishiga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumayev M.E. Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasi.T.:-2005yil
2. Имомова Ш.М., Орзиева М.С. Использование современных информационных технологий при обучение математике// УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА. *№ 12 (25), 2016. С.34-35.*
3. Имомова Ш.М., Фаттоева Г.Ш. Методика преподавания темы квадратных уравнений// УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА. №1 (48), 2019.С.29
4. Имомова Ш.М., Исмоилова М.Н. Вычисление наибольшего собственного значения матрицы и соответствующего ей собственного вектора в среде Mathcad// ACADEMY. 2020. № 6(57). С9.

© Sh.N. Ergashova, G.I. Ortiqova, 2022.

BOLALAR O`YINLARIDA TASVIRLASH VOSITALARI

X.S. Muhammadiyeva[1], M.T. Raxmonova[2]

Maqolada bolalar o`yinlarida tasvirlash vositalari haqida ma'lumot berilgan.

*Kalit so`zlar:* o`yin, tarbiyachi, o`yinchoq, sahnalashtirilgan o`yin, ijodiy o`yin, badiiy asar, rolli o`yin.

Bolalarning o`ynashlari uchun ma'lum vositalar kerak. Rolli o`yinlarda bolalar har xil vositalardan foydalanadilar, ulardan asosiylari quyidagilar: bolalarning o`z harakatlari; o`yinchoq va boshqa materiallar; so`z. Bolalarning asosiy tasvirlovchi vositalari o`zlarining harakatidir, Masalan, bola ikki oyog`ida sakrab quyonchaga taqlid qiladi. Ikki qo`lini qimirlatib, pishillab parovoz bo`ladi va h.k. Bolalarning ko`p harakatlari qurish, yasash bilan bog`liq bo`ladi, ular soatlab parovoz, paroxod, elektrovoz quradilar, ularni o`ziga o`xshatishga urinadilar. Ko`pincha qurish o`yinning boshlanishi bo`lib xizmat qiladi. Taqlid vositasiga o`yinchoq ham kiradi. O`yinchoq bola harakatini to`ldiradi, o`ylagan obrazi va fikrini amalga oshirishga yordam beradi. Kiyimlar va ularning qismlari ham bolaning olgan rolini yaxshiroq bajarishga va uni yanada aniqroq ijro etishga imkon tug`diradi. Bolalar o`yin jarayonida ba'zi bir narsalarni xohlagan narsalari nomi bilan atab ham xuddi o`sha xohlagan narsalarini faraz qilib juda yaxshi o`ynaydilar, masalan, taomni "konfet", qumni "shakar" stulni "mashina" deb atashlari mumkin.

So`z yordamida bolalar qanday o`yin o`ynashlarini kelishib oladilar. So`z yordamida bir-biri bilan muomalada bo`lib, o`z fikrlarini izhor etishadi. So`z har xil taassurotlarni ifodalash imkonini beradi. Bolalar hamma vositalardan ko`pincha bir vaqtda foydalanadilar. Aks ettiruvchi vosita qanchalik ko`p bo`lsa, o`yin mazmuni shunchalik boyroq bo`ladi hamda tevarak-atrofdagi voqealardan taassurot shunchalik to`laroq aks ettiriladi.

O`yin mazmunining rivojlanib borishi bilan murakkab jarayon bo`lgan bolalar jamoasi ham shakllana boshlaydi. O`yin bolalarning mustaqil faoliyati bo`lgani uchun uning syujetini bolalar o`zlari o`ylab topishadi va o`zlari tashkil etishadi. O`yinda bolalar o`zlarining kichkina jamiyatning a'zosi deb hisoblashadi, o`zaro kelishib harakat qilishga o`rganishadi. Ijtimoiy tarbiya olayotgan sharoitda har bir bola o`ynayotgan bolalar jamoasiga kira olishi, u yerda o`z o`rnini topa olishi va shu jamoada o`rnashib olishi lozim.

Tarbiyachi ilk yoshli bolalarda ularning narsalar bilan o`ynay olishi, diqqatini shunga to`play olish qobiliyatini tarkib toptiradi. Bu boshqa bolalar bilan yonma-yon tinch o`ynay olish malakasining shakllanishiga yordam beradi. Bolalar birgalikda o`ynashga o`tganlarida bir-birlari bilan ma'lum munosabat o`rnatishlari lozim bo`ladi. Xudda mana shu munosabat jamoatchilikni shakllantiradi. Bunga tarbiyachi bolalarni kelishib o`ynashga o`rgatish orqali erishadi.

Sahnalashtirilgan o`yinlar ijodiy o`yinlar sarasiga kiradi. Unga ijodiy o`yinning quyidagi asosiy: niyatning mavjudligi, roli va mavjud harakatlar, xayol qilingan vaziyatning va boshqa elementlarning uyg`unligi, bolalarning mustaqillik va o`z-o`zini uyushtira olish jihatari xos. Sahnalashtirilgan o`yin badiiy asar asosida quriladi: o`yin syujeti, rollar, qahramonlarning xatti- harakatlari, ularning nutqi asar matniga ko`ra belgilanadi. Sahnalashtirilgan o`yin bolalarning eshitgan asar yoki ertakdan olgan tasavvurlarini mustaqil ifodalash hamda mashq qilish imkonini beradi. Bu o`yinlar bolalarda iroda, intizom, o`z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita hisoblanadi. Sahnalashtirish bolalarni qayta so`zlashga o`rgatish usullaridan biridir. Ba'zi bir bolalarda badiiy asardan olingan parchani qayta so`zlab berishga xohish ham, qiziqish ham bo`lmaydi,

---

[1] *Muhammadiyeva Xolida Sufitdinovna* - Shofirkon tuman 7-son davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti logoped o`qituvchisi (Buxoro, O`zbekiston).

[2] *Raxmonova Ma'rifat To`ra qizi* - Shofirkon tuman 7-son davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi (Buxoro, O`zbekiston).

ammo unga o`yin usuli kirtilishi bilan bola asardagi rolga kirib, o`sha asar mazmunini juda yaxshi aytib berishga harakat qiladi. Bunday o`yinda bola o`zini o`sha asardagi qahramon o`rnida his etib; uning sezgi, kechinmalari dunyosiga chuqurroq kirib boradi. Badiiy asarlarni qahramonlar tilida so`zlab berish boladagi xayolni rivojlantirishga yordam beradi va asar qahramonida mavjud bo`lgan ijodiy sifatlarni egallashga intiladi. Sahnalashtirilgan o`yinda badiiy asarning g`oyaviy mazmuni bolalar tomonidan chuqurroq anglab olinadi.

Ertak yoki hikoyadagi mazmun bolalarga yaqin, ularning yoshi va qiziqishiga mos, tushunarli bo`lib, bola unga kirishib ketgan taqdirdagina asardagi obraz va harakatlar to`g`ri aks ettiriladi. Shuning uchun u yoki bu badiiy asar bo`yicha sahnalashtirilgan o`yin o`tkazishdan oldin tarbiyachi asarning mazmunini aks ettirishga yordam beradigan tayyorgarlik ishini o`tkazishi kerak. Ertak va hikoyalarni bolalar ko`pincha o`zlarining ijodiy rolli o`yinlarida sahnalashtiradilar, bu o`yinlarda tulki, sichqon, xo`roz, quyon kabi personajlarni o`yinlarda aks ettiradilar. Yozuvchilarning badiiy asarlarini ham bolalar sevib sahnalashtiradilar. Bolalar bilan suhbatlasha turib, tarbiyachi hikoya yoki ertak qahramonlarining o`ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qiladi. Har xil she'r, ertak qahramonlarining o`ziga xos xususiyatlari mana shunday o`rganiladi.

Qurilish o`yinlari ham ijodiy o`yinlar sirasiga kiradi. Ularda bolalar atrof-muhitdagi buyumli dunyo haqidagi taassurotlarini aks ettiradilar, mustaqil tarzda turli narsalar yasaydilar, bunyod etadilar. Qurish-yasash o`yinlarida bir xil buyumlarning boshqalari bilan almashinishi yuz beradi. Kichik va o`rta guruh yoshidagi bolalarda qurilish o`yinlari rolli o`yinlar bilan bog`lanib ketadi. Qurilish o`yinlari samarali faoliyat hisoblanib, bolalarda bunyod etilgan inshootni mavjud buyum va narsalar, inshootning qurilishiga asos bo`lib xizmat qilgan tasavvur bilan qiyoslash, taqqoslash ko`nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. U bolalarda kuzatuvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Qurilish materiallari turli xildagi geometrik shakllardan iborat. Bolalar har bir shaklning o`ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilib olishlari lozim, aks holda hech qanday qurilishni amalga oshirib bo`lmaydi. Bolalar qurgan narsalar amaliy jihatdan yaroqli bo`lishi va ulardan o`yinda foydalanish uchun konstruktorlik malakasiga ega bo`lish kerak. Bundan bolalarga qurishning asosiy usullarini o`rgatish zarurligi kelib chiqadi. Qurilish materiallari bilan o`ynaladigan o`yinlarda bolalarning texnikaga qiziqishi ortadi, kuzatuvchanligi rivojlanadi, ular geometrik jismlarning eng oddiy xususiyatlari bilan tanishadilar. Bolalarni qurilish materiallari bilan o`ynashga qiziqtirish uchun tarbiyachi ular bilan birgalikda o`ynaydi va bu materiallardan hamma bolalar foydalanishlarini kuzatib turadi. Yirik qurilish materiallari bilan guruh xonasidagi gilam ustida, yozda esa bog`cha hovlisida qurish mumkin.

MTT maydonchasida yozda qum va suv bilan, qishda qor bilan o`ynash katta o`rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hasanboyeva O., Tadjieva M., Toshpulatova Sh. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm-ziyo, 2012.
2. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. УЧЕБНЫЕ МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ СПОРТИВНО-ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ// Вестник науки и образования, 2021. № 9 (112). Часть 2. С.38.

© X.S. Muhammadiyeva, M.T. Raxmonova, 2022.

O`YINNING MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI PEDAGOGIK JARAYONIDAGI O`RNI

G.N. Nurmatova[1], D.Q. Asadova[2]

Rezyume. Maqolada o`yinning maktabgacha ta'lim muassasasi pedagogik jarayonidagi o`rni haqida ma'lumot berilgan.

*Kalit so`zlar:* ta'lim, o`yin, tarbiya, nutq, bilim, tasavvur, harakat, tarbiyachi.

O`yinning bola tarbiyasidagi asosiy roli bolalar muassasasi hayotini u bilan boyitishni talab etadi. Shuning uchun ham o`yin bolalar hayotining kun tartibiga doimiy qilib kiritilgan. O`yinlar uchun nonushtagacha va undan keyin, mashg`ulotlardan so`ng, sayrlardan so`ng, kechqurun uyga ketishdan oldin vaqt ajratiladi. Ertalab o`ta harakatchanlikni talab qilmaydigan o`yinlar uchun sharoit yaratish maqsadga muvofiqdir. Mazmunan ko`proq didaktik o`yinchoqlar, stol ustida o`ynaladigan stol-bosma o`yinlari, syujetli-rolli o`yinlarni o`ynagan ma'qul.

Sayr davomida harakatli o`yinlarni, qurish-yasash o`yinlar ini tashkil etish foydalidir. Kun tartibida o`yin uchun maxsus vaqt belgilash o`yinning mustaqil faoliyat sifatida mavjud bo`lishining va uni bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida, tarbiya vositasi sifatida qo`llanilishining eng muhim pedagogik shartidir.

Bolalar o`yinning o`ziga xosligi shundaki, u tevarak-atrofdagi hayotni, kishilarning faoliyati, ishlari, harakatlarini, ularning ish jarayonidagi o`zaro munosabatlarini aks ettiradi. O`yin paytida xona bolalar uchun dengiz, o`rmon, metro, temir yo`l vagoni bo`lishi mumkin. Bola hech qachon jim o`ynamaydi, bitta o`zi o`ynasa ham u o`yinchoq bilan gaplashadi, o`zi tasvirlayotgan qahramon bilan muloqot o`rnatadi, onasi, bemor, shifokor xullas hamma-hammaning o`rniga o`zi gapiraveradi. So`z obrazning yaxshiroq ochilishiga yordam beradi.

Nutq o`yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o`z his-tuyg`u, kechinmalarini o`rtoqlashadi. So`z bolalar o`rtasida do`stona munosabatlar o`rnatilishiga, tevarak-atrofdagi hayot voqealariga bir xilda munosabatda bo`lishga yordam beradi. Bolalarning o`zi yaratgan o`yindan kelib chiqadigan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan o`yinning g`oyasi, mazmuni, o`yin harakatlari, rollar, o`yin qoidalari uning tuzilishini tashkil etuvchi qirralardir.

O`yin g`oyasi - bu nima o`ynashni belgilab olish: "do`kon, "shifoxona", "uchuvchilar", "bolalar muassasasi" va shunga o`xshashlar. O`yin mazmuniga, g`oyasiga qarab bolalarning bunday o`yinlarini bir necha o`ziga xos guruhlarga bo`linadi. O`yinlarning bunday bo`lishi albatta shartli bo`lib, bir o`yinda har xil hayotiy voqealar aks etishi ham mumkin.

O`yin bolalarning qiziqarli ermagigina bo`lib qolmay, shu bilan bir qatorda u bolalarni rivojiantirish va tarbiyalashning muhim vositasi hamdir. Ammo o`yin kattalar tomonidan tashkil etilib, unga rahbarlik qilingandagina ijobiy natija beradi.

Pedagog bolalar o`yiniga rahbarlik qilar ekan, quyidagi talablarga e'tibor berishi zarur: o`yin mazmunining ta'lim- tarbiya beruvchi ahamiyatga ega bo`lishi, aks ettirilayotgan narsalar haqidagi tasavvurlar to`g`ri va to`la bo`lishi, o`yin harakatlariga faol, ma'lum maqsadga qaratilgan, ijodiy xususiyatga ega bo`lishi kerak, Hamma va ayrim bolalarning qiziqishlarini e'tiborga olgan holda o`yinga rahbarlik qilish, o`yinchoqlarni va boshqa kerakli materiallardan maqsadga muvofiq foydalanish, bolalarning o`yinda xayrixoh va xursand bo`lishlarini ta'minlash lozim.

Pedagog bolalar o`yiniga rahbarlik qilar ekan, bola shaxsining hamma tomorilariga: ongiga, his-tuyg`ulariga, irodasiga, xulqiga ta'sir etishi va bundan bolalarni aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy tomondan tarbiyalashda foydalanishi lozim.

---

[1]*Nurmatova Gulshoda Nurxonzoda* - Shofirkon tuman 7-son davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti metodisti (Buxoro, O`zbekiston).

[2]*Asadova Dilnoza Qurbon qizi* - Shofirkon tuman 7-son davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi (Buxoro, O`zbekiston).

O`yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. O`yinda u yoki bu rolni bajarayotib, bola o`zining butun diqqatini o`yinga qaratishi lozim. Bola o`ynayotganda kishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlari to`g`risidagi tasavvuri yetarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi, boyitadi.

Tarbiyachi o`yin orqali bolalarda ona-vatanga, o`z xalqiga boshqa millat kishilariga ijobiy munosabatni shakllantiradi; mustahkamlaydi. O`yin orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, to`g`rilik, o`zini tuta bilishlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. O`yin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo`lgan munosabatini shakllantiruvchi o`ziga xos maktabdir. Tarbiyachi bolalar o`yiniga rahbarlik qilayotib, ularni jamoa orqali ham tarbiyalab boradi. O`yin jarayonida bolalar o`z xohishlarini jamoa xohishi bilan kelishib olishga, o`yinda o`rnatilgan qoidalarga rioya qilishga o`rganadilar. Ammo o`yinga to`g`ri rahbarlik qilinmasa, u noxush oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Tarbiyachi bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashda o`yindan keng foydalanadi. Juda ko`pchilik o`yinlar bolalardan faol harakat qilishni talab etadi, bu esa o`z navbatida organizmda modda almashinishini yaxshilaydi, qon aylanishini tezlashtiradi. Bundan tashqari faol harakat qilish bola gavdasining to`g`ri o`sishini, harakatlari chiroyli bo`lishini ham ta'minlaydi. O`yin orqali tarbiyachi bolalarda quvnoq kayfiyat yaratadi, ijobiy ruhiyat hosil qiladi, bu esa bolaning asab-ruhiy, jismoniy tarbiyasini yaxshilaydi.

O`yin bolalarga estetik tarbiya berish vositasi sifatida ham keng qo`llaniladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayotni, voqelikni obrazlar, rollar orqali ham aks ettiradilar. O`yinda bolalarning avval olgan taassurotlari orqali obraz yaratishlari - xayol juda ham katta ahamiyatga ega. Bolalar juda ko`p o`yinlarda avval o`rgangan ashula, she'r, raqs, topishmoqlardan keng foydalanadilar. Bundan tarbiyachi bolalarda estetik did, zavqni tarbiyalashda foydalanadi.

O`yin bilan ta'lim o`rtasidagi bog`liqlik bola ulg`aygan sari o`zgarib boradi. Kichik guruhda o`yin ta'lim berishning asosiy shakli hisoblansa, katta guruhga borganda esa mashg`ulotlarda ta'limning roli ortadi. Tayyorlov guruhiga borganda bolalarning o`zlarida maktabdagi o`qishga ishtiyoq uyg`onib qoladi. Ammo bolalar uchun o`yinning qadri yo`qolmaydi, balki mazmuni o`zgaradi. Endi bolalarni ko`proq fikriy faollikni talab etuvchi o`yinlar, sport tarzidagi o`yinlar qiziqtira boshlaydi. Shunday qilib, pedagogika fani o`yinga bola shaxsini har tomonlama shakllantirish vositasi va ular hayotini tashkil etish shakli, bolalar jamoasini shakllantirish vositasi deb qaraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanboyeva O., Tadjieva M., Toshpulatova Sh. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm-ziyo, 2012.
2. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. УЧЕБНЫЕ МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ СПОРТИВНО-ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ// Вестник науки и образования, 2021. № 9 (112). Часть 2. С.38.

© G.N. Nurmatova, D.Q. Asadova, 2022.

MUHAMMAD YUSUF IJODIDA QO`LLANGAN IBORALARDA MA'NO KO`CHISHI

M.I. Sultonova[1], M.H. Sharipova[2]

Maqolada Muhammad Yusuf ijodida qo`llangan iboralarda ma'no ko`chishi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so`zlar: she'r, ibora, ijod,lirika, lirik qahramon, badiiy adabiyot.

O`zbek xalqining sevimli shoiri Muhammad Yusufning ijodi, she'rlari haqida har qancha gapirsak oz. Muhammad Yusuf milliy adabiyotimiz va madaniyatimizni rivojlantirish, xalqimiz ma'naviyati va ong-u tafakkurini yuksaltirish, yosh avlod qalbida o`zlikni anglash, milliy g`urur va iftixor tuyg`ularini, ezgu fazilatlarni kamol toptirishga yorqin iste'dodi, betakror badiiy asarlari, ijtimoiy faoliyati bilan katta hissa qo`shgan, asarlari orqali o`quvchilar qalbida hayrat va hayajon uyg`otib kelayotgan betakror ijodkordir.

Muhammad Yusuf yetuk so`z san'atkori sifatida frazeologizmlardan unumli foydalanib, voqelikni real ifodalash va o`quvchiga estetik ta'sir etish vazifalarini uyg'un tarzda amalga oshirishga erishgan. Ularning ba'zilari haqida to`xtalib o`tamiz. Shoir ijodida qo`llangan iboralarda ma'no ko`chishining turli jihatlarini uchratish mumkin. Masalan, Bu dard yetar sizga o`la-o`lguncha, Bardoshingiz tog`dek bo`lmasa buncha? Nolang haqqa yetib qaytib kelguncha, Xursand yashash qiyin, Xursanoy opa. Misrasida "bardoshi tog`dek" iborasi chidamli, matonatli ma'nosida qo`llanilib, shakl o`xshashligini ifodalagan. Bu o`zbek tilida metoforik yo`l bilan ma'no ko`chishi deb izohlanadi. Shoir ijodida bunday iboralarning ko`p o`rinlarda ishlatilganini ko`rish mumkin.

"Singlimga maktub" nomli she'rida esa shoir lirik qahramon holatini ifodalashda "tosh ko`ngil" iborasidan foydalangan:

Qachon xat yozgandim senga bilmayman,
Qofiya bilan band bugun tosh ko`nglim.
Yolg'iz akang bo`lib,
Yoningda yurmayman…
Kechir meni, singlim,
Kechir meni, singlim.

Bu misrada "tosh ko`ngil" iborasini shoir yuqorida ta'kidlaganimizdek, lirik qahramonning ichki kechinmalarini ifodalashda qo`llagan. Shu bilan Muhammad Yusufga xos yana bir xususiyatni ham keltirib o`tishimiz mumkin. Shoir o`z she'rlarida iboralarni qo`llar ekan, ularning shaklini o`zgartirgan holda keltirganini ko`ramiz:

Dardin tilga ko`chirmas shoir,
Shoir dardin yutishi mumkin.
Hech kimni zor kuttirmas shoir,
Shoir yuz yil kutishi mumkin.

Parchada "dardini ichiga yutmoq" iborasi dardini yutmoq shaklida qisqartirilgan. Bu ibora harakat o`xshashligini ifodalab, metofarik usulda ma'no ko`chishiga uchragan.

Shoir ijodida achinish, befarqlik, g'azab, nafrat, hayrat kabi munosabatlarni ifodalashda ham iboralarning nozik ma'no ottenkalaridan mohirona foydalanganini ko`rishimiz mumkin. Masalan, "Hayron bo`lmam turna kishnasa" deb boshlanuvchi she'rida yuqorida keltirilgan munosabatlarni quyidagi iboralar bilan ifodalagan. "Ko`zi pishmoq", "Ko`ngli uvishmoq", "Bag'rini tilmoq", "Orzu qilmoq" kabilar.

Senga qarab ko`zim pishmoqda,

---

[1]*Sultonova Mohigul Isroilovna* - Shofirkon pedagogika kolleji ona tili va adabiyoti fani o`qituvchisi (Buxoro, O`zbekiston).

[2]*Sharipova Mahliyo Hakimovna* - Shofirkon tumani 2-maktab ona tili va adabiyoti fani o`qituvchisi (Buxoro, O`zbekiston).

Seni o`ylab ko`ngil uvishmoqda.
Kelin orzu qilib, bag`rimni tilib
To`shak qavir qari onam qishloqda…
Aldab nima qilasan?

Salbiy munosabat ifodalash salbiylik-ijobiylik bo`yog'ini iboralar orqali ham ifodash mumkin. "Bag'ri tosh" bu ibora quyidagi misrada:

Bir bor qosh uymagan qalam qoshligim,
Sochingdagi oqlar bag`ri toshligim,
Bir shirin so`z aytmay, bitta gul tutmay,
Sen gulni so`ldirdi mening yoshligim.

Lirik qahramonning achchiq haqiqatni yillar o`tgandan so`ng tan olganligini ifodalagan va muallif tomonidan metoforik usulda ma'no ko`chishi hosil qilingan. Shoir asarlarida iboralarni umuman, barqaror birliklarni qo`llar ekan ularni aynan keltirish yoki shaklini o`zgartirgan holda qo`llaydi. Masalan, "Yodingga tushsam goh, yo`qlab tursang bas", "Ko`nglimni ko`chkiday bosadi bir g`am", "Qo`lim qisqa, sevgim, bo`ylarim uzun", "Ey ko`nglimga ko`rk bo`lmayin ketgan g`uncha", "Turkman qizni maqtab baloga qoldim", "Yuragim og`rir go`yo kimdir uni tig` bilan tilar" kabi. Misollarda yuqorida ta'kidlaganimizdek, iboralar o`z va shaklan o`zgargan holatda qo`llanilib, turli xil ma'no ko`chishlarini hosil qilgan.

Tahlillardan ma'lum bo`ladiki, shoir mohir so`z san'atkori sifatida ona tili imkoniyatlarini yaqqol namoyon qiluvchi frazeologik birliklarning informativ funksiyasi bilan bir qatorda ekspressiv imkoniyatini ham zukkolik bilan idrok etib, voqelikka turlicha munosabatlarni ifodalash uchun foydalanadi. Shuningdek, o`zi ham tilda mavjud so`zlar birikuvlariga obrazli ibora tusini beradiki, bu uning ona tilimiz inja imkoniyatlarini ishga solish qudratiga egaligidan dalolat beradi. Muhammad Yusufning o`ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan pozitsiyasi mavjud. Uning ijod usulida "Men" – shaxs pozitsiyasi ko`zga tashlanadi. Asarlarida "men" shaxs sifatida bayon etilgan, shaxs insonlarga murojaat qilinishi benihoyat ko`p. Muhammad Yusuf o`ziga xos uslubga ega yetuk shoir, qalami o`tkir ijodkordir. Muhammad Yusufning ijodiy mahorati she'riyatida yaqqol aks etadi. Mohir shoirning asar, doston, ijod namunalarida umumtil iboralariga murojaat qilish ko`p uchraydi. Chunki, tahlil jarayonida iboralar ijodkorning dunyoning, ijtimoiy hayotning, jamiyatning nuqsonlari va yutuqlarini "ko`ra olish" qobiliyatini ochib bergan. Zabardast qalamkash shoir Muhammad Yusuf she'rlari jozibali ruhda yozilganligini ko`rish mumkin. Muhammad Yusuf bugungi kun badiiy adabiyot, she'riyatning yorqin vakili, har bir insonga o`rnak bo`larli, barchani ma'rifatga chorlovchi badiiy – tahliliy ijod namunalari bilan zamonni aks ettirib turadi. Kimki, bugungi kunda zabardast qadam tashlashni, o`zini anglashni istasa, shoirning betakror ijod namunalaridan o`qib-o`rganib, mushohada yuritib, o`rnak olsin. Shunda o`zining fikriy darajasini, chin insoniy qiymatini belgilay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. - Тошкент: Муҳаррир, 2013.

© M.I. Sultonova, M.H. Sharipova, 2022.

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA IQTISODIY TARBIYANI TASHKIL ETISH

Z.N. Ubaydullayeva[1], M.I. Ochilova[2]

Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiyani tashkil etish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so`zlar: maktabgacha ta'lim, tarbiya, inson, iqtisod, mehnat, bilim.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga ilk iqtisodiy bilimlar berish asosan o`rta guruhdan boshlab tashkil etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy bilim berish, ularning mantiqiy fikrlash doiralarini o`stirish, ishbilarmonlik, tejamkorlik sifatlarini shakllantirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi.

O`rta guruh bolalariga ilk iqtisodiy tushunchalarni berish quyidagi bo`limlar: Inson va uning ehtiyojlari; Inson va iqtisod; Pul, mahsulotlarni sotib olish va ayirboshlash asosida tashkil etiladi. Inson va uning ehtiyojlari haqida tushuncha berishda, inson uchun zarur bo`lgan hayotiy ehtiyojlar (kiyim-kechak, oziq-ovqat va hokazo), tejamkorlik haqida (suvni, vaqtni tejash), maktabgacha ta'lim muassasalaridagi va uydagi jihozlardan (o`yinchoq, kitob va hokazo) tejamkorlik bilan munosabatda bo`lish vaqt haqida ilk tushuncha berish orqali vaqt tejash haqida tushunchalar beriladi. Bu tushunchalarni berish orqali tevarak-atrofdagi buyum va xomashyolar, ularning xilma-xil sifatlariga, uy-ro`zg`or buyumlari (ko`rpa-to`shak, ko`rpacha, yostiq, choyshab, idish- tovoqlar) ularni bir-biridan farqlash va umumlashtirish, ustki kiyimlar turlari haqida tasavvurlarini aniqlash va kengaytirishadi.

Atrof-olam bilan tanishtirish mashg`ulotlarida "Non va suv biz uchun aziz", "Uy-ro`zg`or buyumlari", "Oshxona buyumlari" kabi mavzularda suhbatlar o`tkaziladi.

Inson va iqtisod haqida tushuncha berishda mehnat inson hayotidagi asosiy faoliyat ekanligi, kattalar mehnatiga hurmat va qiziqish hissini tarbiyalash, o`zbek xalqining milliy hunarmandchiligi, duradgor mehnati, dehqon mehnati haqida qisqacha ma'lumot beradi. Bolalar o`z tarbiyachisi, enaga, oshpaz, haydovchi, bog`bon mehnati bilan tanishtirish jarayonida ularda inson va uning mehnatiga hurmat hissi shakllantiriladi. Mehnat qurollariga nisbatan ehtiyot bo`lib, tejamkorona munosabatda bo`lishga tarbiyalanadi. Atrof-olam bilan tanishtirish mashg`ulotlarida quyidagi: "Duradgor mehnatini kuzatish", "Dehqonlar mehnati haqida", "Haydovchi mehnati haqida", "Bog`bon", "Oshpaz", "Quruvchi" mehnati haqida suhbatlar o`tkaziladi. Bolalar xo`jalik mehnat qurollari bilan yaqindan tanishtiriladi.

Pul-mahsulotlarni sotib olish va ayirboshlash bo`limida bolalarga bozor, uning turlari, sotuvchi, xaridor, bozorda oldi-sotdi ishlarini amalga oshiruychi vosita - pul to`g`risida tushuncha beriladi. Milliy pul, uning turlari, vazifalari haqida bolalarga iqtisodiy bilim beriladi.

Katta guruhda quyidagi: Inson va uning hayotiy ehtiyojlari; Inson va iqtisodiyot; Pul, narx mahsulotlari sotib olish va ayirboshlash; Ishlab chiqarish, mehnat faoliyati bo`limlar asosida iqtisodiy bilim beriladi, bolalarga iqtisodiy ongni shakllantirish, mustaqil fikr yurita olish, puldan to`g`ri foydalana olish, pul qiymati, milliy valyutamiz, davlatimiz rivojidagi kuchi, xizmati haqida tushuncha beriladi.

Insonlarning tabiiy ehtiyojlari (ichimlik suvi, yerga o`simlik va hayvonotlar dunyosi) va imkoniyatlari, moddiy ma'naviyat ehtiyoji va uni qondirish usullari, vaqtni tejash, undan unumli foydalana olish, suvning inson hayoti uchun zarurligi, yer yuzidagi eng bebaho boylik, uni asrash bizning burchimiz ekanligi, quyosh, oy harakatlari haqida tushuncha beriladi. Insonlarning transport va aloqa vositalariga bo`lgan ehtiyoji haqida

[1]*Ubaydullayeva Zarina Nurmatovna* - Buxoro shahar 59-son Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti logoped-o`qituvchisi (Buxoro, O`zbekiston).

[2]*Ochilova Maxsad Ibragimovna* – Buxoro shahar 56 - son Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti logoped -o`qituvchisi (Buxoro, O`zbekiston).

tushuncha beriladi. Atrof-olam bilan tanishtirish mashg`ulotlarida "Aloqa vositalari", "Havo" transporti haqida suhbatlar o`tkazib, yengil transport turlari harakati kuzatiladi va kompyuter bilan yaqindan tanishtiriladi.

Inson va iqtisodiyot - Inson shaxsi, unga zarur bo`lgan sog`lom muhit, sog`liqni saqlash, kattalar mehnati, ularning dam olishlari uchun davlatimiz tomonidan qilinayotgan g`amxo`rliklar haqida tushuncha beriladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi shifokori va hamshirasi mehnati bilan tanishtirilib, bolalar sog`lig`i uchun barcha sharoitlar mavjudligi, fitobarlar tashkil etilganligi, basseyn va sog`lomlashtiruvchi jihozlarning bolalar uchun, ularning sog`lom o`sishlari uchun yaratilganligi tushuntiriladi. Buning uchun quyidagi "Shaxsiy gigiyena", "Vitaminlar", "Salomatlik-tuman boylik", "Sog` tanda - sog`lom aql" mavzularida suhbatlar o`tkaziladi.

Mehnat faoliyati bo`limida mehnat insonlarning asosiy faoliyati ekanligi, mehnat turlari, ishlab chiqarish korxonalari, qurilishlar, bog`bon, pillakor, chorvachilar mehnati bilan yaqindan tanishtirish, mebel, avtomobil, televizor, chinni, nonvoyxona korxonalari, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlari, mehnat quroli va asboblari haqidagi bilimlarini takomillashtirish, ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlari mamlakat aholisi uchun ahamiyati haqida ma'lumot beriladi. Korxona, tashkilotlar va ularning turlari haqida korxona moliyaviy ta'minoti, ishlab chiqarish uchun zarur bo`lgan, ashyolar firma haqida tushuncha shakllantiriladi. Mehnat turlaridan aqliy va jismoniy mehnat soha vakillarining tomonidan yaratilayotgan moddiy va ma'naviy ne'matlar tushuntiriladi. Atrof-olam bilan tanishtirish mashg`ulotlarida tikuvchi mehnatlari va xo`jalik mehnat qurollari (ketmon, shifokor belkurak, chelak, tesha) bilan yaqindan tanishtiriladi.

Maktabgacha tayyorlov guruhidagi bolalarga iqtisodiy bilimlar berish mazmun jihatdan bir muncha kengaytirilib, bunda "mulk", oila byudjeti, "bank", "import", "eksport" kabi tushunchalar berildi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning iqtisodiy bilimlarini shakllantirishda oila ham muhim rol o`ynaydi. Xonadonning maqsadi - o`z iste'molini yuqori darajaga ko`targan holda kelajakni ta'minlash uchun jamg`arma hosil etishdir. Buning uchun oila a'zolarining moddiy-ma'naviy ehtiyojlari jamlangan mablag`ni maqsadli sarflash asosida "oila jamg`armasi"ni yaratish lozimdir. Oilada iqtisodiy mulk, oila mulkiga nisabatan to`g`ri munosabat asoslari shu tariqa tarkib toptiriladi. Oilada pul mablag`larini shakllantirish, sarflarni har bir oila a'zolarining ehtiyojlari va umumiy ehtiyoji (gaz, elektr, isitish, suv, soliq va boshqalar) larning hisobiga oqillik bilan rivojlantirish uyushganlik va tartibga o`rgatadi, turmush madaniyatini oshiradi.

Xulosa o`rnida, bolalarni iqtisodiy bilimlar bilan qurollantirish, ularning kelajagini ta'minlashdagi vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hasanboyeva O., Tadjieva M., Toshpulatova Sh. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm-ziyo, 2012.
2. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. УЧЕБНЫЕ МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ СПОРТИВНО-ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ// Вестник науки и образования, 2021. № 9 (112). Часть 2. С.38.

© Z.N. Ubaydullayeva, M.I. Ochilova, 2022.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH YO`LLARI

D.A. Xodjiyeva[1], M.T. Sohibova[2]

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish yo`llari haqida ma'lumot berilgan.

*Kalit so`zlar*: tarbiyachi, tabiat, tabiat burchagi, o`yin, mehnat, mashg`ulot.

Inson onadan tug`ilib, olamga kelgan chog`idanoq tabiat ehsonidan bahramand bo`ladi. Ilk bor havodan to`yib nafas oladi. Odamzot o`sib-unish uchun oziq-ovqat, suv, quyosh, harorati juda zarur bo`lib, u bularning hammasini tabiatdan oladi. Tabiat musaffo bo`lsa, odam ham sog`lom, baquvvat o`sadi.

Tabiat shunday odil mo`jizaki, atrof-muhitni muvozanatga keltiradi. Chunonchi chiqarilgan karbonat angidridni o`simliklar yutib, uni kislorodga aylantiradi, demak o`simliklar dunyosi, ramziy ma'noda aytganda, havoni chang va karbonat angidriddan tozalab beruvchi bebaho vositadir. Bunday inson o`z atrofini o`rab turgan tabiatni, uning o`simliklar dunyosini ko`z qorachig`iday asrabgina qolmay, uni boyitishi, qo`lidan kelganicha ko`proq daraxt ekishi, ko`kalamzorlashtirishga intilishi zarur degan xulosa chiqadi. Shuning uchun ota- bobolarimiz daraxt ekish, bog`-rog` yaratishni savobli ish deb bilishgan. Bir tup mevali daraxt ekkan kishining ikki dunyosi obod bo`ladi, deb bejiz aytishmagan.

Muhammad alayhissalom hadislarida bu ishning savobi xususida quyidagilar aytilgan: "Ekmoq niyatida qo`lingizda ko`chat turgan paytda, behosdan qiyomat qoim bo`lib qolishi aniq bo`lganda ham, ulgursangiz, uni ekib qo`ying".

Inson ehtiyoji uchun zarur bo`lgan suv, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak ham tabiatdan olinadi, hattoki insonning xastalikdan qutulishi, salomatligini tiklashi uchun zarur bo`lgan dori-darmonlar ham ona-tabiatda yetishgan mevalar, turli giyohlar va ziravorlardan tayyorlanadi. Inson tanasida birorta ortiqcha a'zo bo`lmaganday, tabiatda ham ortiqcha yaratilgan birorta narsa yo`q. Ularning hammasi hayot uchun zarur.

Mashg`ulotlar bolalarga ta'lim va tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Dasturda belgilangan bilim va malakalarni tarbiyachi ta'lim tamoyillari asosida bolalar o`zlashtira oladigan qilib tashkil etadi.

Kundalik hayotda kuzatish, o`yin, mehnat vaqtida bolalarning shaxsiy bilimlari yig`ilib boradi. Mashg`ulotlar ularni aniqlash va sistemalashtirish imkonini beradi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning xilma-xil yo`llari mavjud. Mashg`ulotlarning ayrimlarida boshlang`ich bilimlar shakllantiriladi. Buning uchun tarbiyachi kuzatish, rasmlarni ko`rish, badiiy asarlarni, hikoyalarni o`qish, diafilm va shunga o`xshashlarni ko`rsatishdan foydalanadi. Boshqa mashg`ulotiarda esa bilimlar aniqlanadi, kengaytiriladi va chuqtirlashtiriladi. Mashg`ulotlarda bu xildagi suhbatlar, didaktik o`yinlar, umumlashtiruvchi so`zlardan, bolalarning tabiatdagi mehnatidan foydalaniladi. Barcha guruhlarda mashg`ulotlarga qo`shimcha sifatida maqsadli sayrlar o`tkaziladi.

Ekskursiya. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ta'lim berishning tashkiliy formalaridan biri ekskursiyadir. Ekskursiya jarayonida bolalar ona tabiat to`g`risida aniq tasavvurga ega bo`ladilar. Bu tasavvur tabiatni ko`rish, eshitish, sezish orqali idrok etiladi.

---

[1]*Xodjiyeva Dilafruz Alisherovna* - Buxoro viloyat maktabgacha ta'lim boshqarmasi Bolalar salomatligini ta'minlash va ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati muvofiqlashtirish bo`limi boshlig`i (Buxoro, O`zbekiston).

[2]*Sohibova Madina Tolibovna* - Buxoro viloyat maktabgacha ta'lim boshqarmasi Bolalar salomatligini ta'minlash va ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati muvofiqlashtirish bo`limi mutaxassisi (Buxoro, O`zbekiston).

Ekskursiya jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiat, undagi bog`liqlik va uning qonuniyatlari to`g`risida realistik tasavvurlar hosil bo`ladi. Bu tushunchalar keyinchalik bolalar egallaydigan ilmiy bilimlarning asosini tashkil etadi, maktabda o`rganiladigan tabiiy fanlarni o`zlashtirib olishni osonlashtiradi. Tabiat to`g`risidagi bilimlardan bexabar bo`lish ko`pincha o`simlik va hayvonlarga nisbatan noto`g`ri, ba'zi hollarda esa berahm va shafqatsiz munosabatda bo`lishga olib keladi.

Ekskursiya bolalarni tabiatni o`ziga xos hodisa va voqealari bilan tanishtiribgina qolmay, balki shu bilan qatorda insonlarni tevarak-atrofdagi o`zgartiruvchi faoliyatining natijalari bilan ham tanishtirib boradi. Bu esa kishilarning yaratuvchanlik faoliyatiga hurmatini tarbiyalaydi va unda qatnashish xohishini uyg`otadi, o`z o`lka tabiatidan, unda yashovchi mehnat ahlidan g`ururlanish hissini mustahkamlaydi.

Yuqorida tilga olingan barcha metodlar va usullar bolalarda tabiatga nisbatan qiziqish uyg`otadi, ularni yanada sinchkovlik bilan kuzatishga, kuzatayotgan narsa ustida chuqurroq o`ylashga, fikr, bilim doirasini kengaytirishga, har xil tabiiy voqea, hodisalarni so`z bilan chiroyli qilib to`g`ri ifodalab berishga o`rgatadi.

Tabiatga muhabbat, unga ehtiyotkorlik munosabatini, o`simlik va hayvonlarga g`amxo`rlikni tarbiyalash va shular orqali tabiatga qiziqish, vatanparavarlik, mehnatsevarlik, tabiatni saqlovchi va uning boyliklarini ko`paytiruvchi, kattalarning mehnatiga hurmatni tarbiyalash kabi vazifalarni amalga oshirishda tabiat burchagining ahamiyati kattadir. Tabiat burchagining muhim tomoni yana shundaki, uni bolalar har kuni ko`radilar. Tarbiyachi rahbarligida bolalar tabiat burchagidagi o`simlik va hayvonlarni sistemali ravishda kuzatib va parvarish qilib boradilar, Natijada o`simlik va hayvonot dunyosining rang-barangligi, ularning o`sishi va rivojlanishi, ular uchun qanday shart-sharoitlar kerakligi to`g`risidagi tasavvur va tushunchalarni egallab boradilar. Tarbiyachi bolalarni solishtirma analizga o`rgatadi, ular o`rtasidagi umumiylik va farqlarni, ularga xos belgilarni bilib oladilar. Tarbiyachi bolalar diqqatini o`simliklarning chiroyli gullashiga, barglarining shakli va tusiga, akvariumdagi baliqlarning chiroyli ko`rinishiga va chaqqon harakatiga jalb etadi. Natijada bolalar bu go`zallikdan quvonishga o`rganadilar hamda ularning estetik didi o`sadi. Bolalar tabiat burchagidagi o`simlik va hayvonlarni tarbiyachi rahbarligida sistemali ravishda kuzatib, parvarish qilib borishlari natijasida ma'lum malaka va ko`nikmalarni ham egallab boradilar, ularga nisbatan barqaror qiziqish va g`amxo`rlik hissi uyg`onadi.

Bolalarning tabiatga mehr-muhabbatini o`simliklar va hayvonlarni parvarish qilish, ularni asrab-avaylash bo`yicha mehnat faoliyatlarini tashkil etish bilan birga qo`shib olib borish kerak. Tarbiyachi bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishini ularning yosh xususiyatlari, pedagogik, fiziologik imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanboyeva O., Tadjieva M., Toshpulatova Sh. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm-ziyo, 2012.
2. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. УЧЕБНЫЕ МЕТОДЫ ОРГАНИЗАЦИИ СПОРТИВНО-ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ// Вестник науки и образования, 2021. № 9 (112). Часть 2. С.38.

© D.A. Xodjiyeva, M.T. Sohibova, 2022.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТРАЕКТОРИИ БУДУЩЕГО И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ РЫНКА ТРУДА

Н.В. Мирошниченко[1]

Статья посвящена анализу тенденций рынка труда и трансформации образовательных траекторий. Рассмотрены факторы, влияющие на качество образования в современных условиях. Приведены аргументы в пользу трехстороннего взаимодействия вузов, предприятий и государства с целью актуализации образовательного процесса.

Ключевые слова: образовательные траектории, рынок труда, университеты, образование.

Еще двадцать лет назад эксперты прогнозировали масштабные изменения в профессиональной структуре общества: с одной стороны, это обусловлено развитием технологий, совершенствованием производственных процессов, экспоненциальным ростом компьютеризации деятельности компаний, а с другой стороны, это связано с изменением коммерческих условий на рынке труда. Трансформация профессиональной структуры общества и рынка труда – процесс, который сопровождает всю историю развития человечества: сначала из охотников и собирателей люди переквалифицировались в земледельцев; потом появились ремесленники, причем каждый со своей специализацией; выделились военные, политики, врачи, писатели и поэты и т.д.; далее рынок труда всё более усложнялся, специализировался, одни профессии исчезали, и с каждым новым витком технологического развития появлялись новые. Многие эксперты отмечают, что 50% современных профессий исчезнут в ближайшие 25-30 лет. Соответственно, наиболее актуальными вопросами сейчас становятся вопрос выбора или смены профессии, отвечающей запрос стремительно меняющегося мира, а также вопрос обеспечения такого качества образования, которое позволит выпускникам учебных заведений успешно выстраивать свою карьерную траекторию вне зависимости от ее характеристик. Какие профессии исчезнут, и самое главное – какие профессии появятся на рынке труда в ближайшие 20 лет? Как это отразится на рынке образовательных услуг? Какие новые компетенции будут востребованы через 5-6 лет, и как ВУЗам максимально быстро адаптироваться к стремительно изменяющемуся рынку труда?

Практически на любой конференции, касающейся трендов образования и рынка труда, самым популярным лозунгом является тезис о том, что современному человеку предстоит в течение своей жизни сменить от 5 до 20 профессий, то есть каждые полтора-два года индивид будет менять компанию-работодателя (или переходить в статус ИП или самозанятого), сферу деятельности, возможно и место проживания и работы. На наш взгляд, этот тезис пока не подкрепляется весомыми аргументами. Чтобы понимать, какие изменения происходят и что в будущем ждет рынок труда и образования, надо более детально понимать, что подразумевается под сменой профессии.

Зачастую эксперты, продвигающие данную точку зрения, понимают под сменой профессии совершенно иные процессы:

- Смена сферы деятельности. Например, переквалификация преподавателя вуза в бизнес-тренера – это ни в коем случае не смена профессии, это скорее смена сегмента, формата работы и целевой аудитории преподавателя. Или переход врача-дерматолога из муниципальной поликлиники на должность врача-косметолога в салон красоты – это тоже нельзя назвать сменой профессии; специалист остался в поле своей профессии, сменив специализацию и сектор экономики – с государственного на коммерческий.

---

[1] *Мирошниченко Наталия Валерьевна – кандидат экономических наук,* доцент кафедры экономической безопасности, аудита и контроллинга, Российский государственный университет им. А.Н. Косыгина, Россия.

- Смена отрасли. Такую профессиональную трансформацию также нельзя идентифицировать как смену профессии (например, теплоэнергетик ушел из металлургической отрасли в химическую; маркетолог перешел из производственной компании в сферу услуг и т.п.).

- Смена правового статуса. Например, открытие ИП или регистрация в качестве самозанятого. Это не значит, что человек меняет свою профессию: если специалист проработал несколько лет в ФНС, а потом стал персональным налоговым консультантом, это совершенно не означает, что он сменил профессию. В современных условиях трудоустройство в различных статусах - работа по найму, работа на фрилансе или в статусе ИП – может как совмещать все эти формы, может чередоваться или комбинироваться любым приемлемым для индивида способом.

- Смена специализации. Это, пожалуй, наиболее часто встречающееся заблуждение, которое воспринимается как смена профессии, что, по сути, таковой не является. Специализацию может менять и врач, и преподаватель, и инженер, и повар, и филолог, и физик, и госслужащий, и экономист и т.д.

По исследованиям Head Hunter (hh.ru) за последние 10 лет каждый третий россиянин сменил род деятельности, из них только 33% сменили профессию кардинально, остальные опрошенные ушли в смежную профессию или отрасль[1]. Это были данные 2019 года. С момента начала пандемии COVID-19 профессию сменили еще 23% россиян (опрос сервиса «Работа.ру», участвовало 9 тысяч человек)[2]. В качестве наиболее частых причин смены профессии называют такие, как неудовлетворительный уровень оплаты труда, выгорание, плохие условия труда, отношения с руководством.

Помимо этого, вызывает тревогу разобщенность действий учебных заведений и работодателей в процессе формирования рынка труда. Учебные заведения, реализующие программы профессиональной подготовки, ратуют за увеличение числа студентов, обучающихся по договорам о целевой подготовки специалистов; за проведение практик и стажировок на базе действующих организаций, что зачастую реализуется формально, поскольку любое учебное заведение ограничено рамками учебного плана и графика, не всегда имеет достаточно финансовых ресурсов для организации карьерных мероприятий для своих обучающихся (зачастую, организация подобных мероприятий осложняется отсутствием в регионе крупных предприятий, готовых трудоустраивать обучающихся и выпускников; или сложной экономической ситуацией – к сожалению, российские регионы крайне неоднородны по темпам экономического развития). Отсутствие системной проработки вопросов развития карьеры студентов, демографические спады, усиливающаяся конкуренция между учебными заведениями – все это способствует тому, что все чаще звучат тезисы о существенном снижении качества образования в российских вузах. Соответствует ли это действительности? Далеко не всегда.

На сегодняшний день, в качестве факторов, которые действительно негативно сказываются на качестве профессиональной подготовки специалистов, важно отметить следующие:

1.Ковидные ограничения. Ограничения, связанные с пандемией, коснулись практически каждого жителя земного шара. И естественно, затронули они и сферу образования: перевод занятий в дистанционные форматы (что усложняет процесс обучения, контроля над выполнением заданий); проведение практической подготовки и стажировок на базе учебного заведения (что связано с неготовностью многих предприятий принимать практикантов и стажеров из-за невозможности соблюдения анти-ковидных мер).

2.Разрыв между системой образования и рынком труда (на ситуацию не всегда могут повлиять вузы; зачастую это связано с особенностями управления регионом или объективными экономическими условиями).

3.Недостаточная гибкость учебных графиков, невозможность их оперативной корректировки.

---

[1] https://ria.ru/20191225/1562806935.html

[2] https://www.rbc.ru/rbcfreenews/605cf5409a794769b3112d75

4.Необходимость актуализации компетенций профессорско-преподавательского состава в части освоения новейших технологий в своем профессиональном поле (например, внедрение новейшего производственного оборудования, опыта работы на котором у преподавателей вузов нет).

5.Сложность координации между университетами и компаниями, отсутствие единой эффективной экосистемы.

Указанные выше факторы приводят к тому, что образовательные траектории выстраиваются нелинейно. Теперь к данным факторам добавились последствия санкций со стороны недружественных государств.

В сложившейся ситуации назрела необходимость консолидации усилий учебных заведений, органов власти и предприятий по координации деятельности, направленной на совершенствование образовательных траекторий обучающихся, расширение направлений практической подготовки в процессе обучения в высшем учебном заведении, более глубокой включенности предприятий в образовательную деятельность. При согласованности действий в данной ситуации все три стороны в перспективе получают весомые преимущества.

В первую очередь, учебные заведения:

1)актуализация образовательных программ, внедрение инновационных форматов обучения, расширение направлений и форматов практической подготовки обучающихся, что в конечном итоге будет способствовать росту качества образования и повышению востребованности выпускников вуза;

2)актуализация компетенций научно-педагогических работников вузов за счет более эффективного взаимодействия с предприятиями и учета особенностей производственного процесса при разработке рабочих программ дисциплин;

3)расширение спектра научных и научно-технических исследований и разработок на базе вузов за счет возможностей формирования научно-производственных кластеров.

Предприятия также, в свою очередь, при выстраивании долгосрочных отношений с учебными заведениями получают следующие положительные эффекты:

1)возможность целевой подготовки специалистов с учетом специфики деятельности предприятия за счет расширения форматов практической подготовки, внедрения системы стажировок, участия представителей предприятия в образовательном процессе, возможности внедрять гибкие формы обучения с использованием ЭОИС вузов;

2)возможность повышения квалификации своих сотрудников на базе учебных заведений-партнеров;

3)проведение научных исследований, экспертиз совместно с высококвалифицированными специалистами академического сообщества;

4)поддержка и внедрение в производственный процесс новейших разработок, созданных обучающимися, аспирантами и сотрудниками учебных заведений, способствующих формированию конкурентных преимуществ предприятия.

Государственные органы власти при реализации такого трехстороннего сотрудничества получают возможности реализации амбициозных инновационных проектов за счет синергии академического и бизнес-сообщества. Такое сотрудничество способствует сокращению показателей молодежной безработицы, развитию молодежных предпринимательских инициатив, актуализации образовательных запросов со стороны рынка труда.

© Н.В. Мирошниченко, 2022.

MIGRATSIYA SOHASINI SAMARALI BOSHQARISHDA XALQARO TASHKILOTLARNING TUTGAN O‘RNI

Sh.U. Aminov[1]

Ushbu maqola migratsiya sohasini boshqarishda xalqaro tashkilotlarning o‘rni, tavsiyalari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi tahliliga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: migratsiya, migrant, davlat, inson, BMT, XMT, xalqaro tashkilot.

Xalqaro maydonda globallashuv jarayonlarining tobora shiddat bilan rivojlanib borishi bugungi kunda inson huquqlarining, erkinligining muhofaza qilish hamda uning kafolatlarini kuchaytirish masalasi dolzarb vazifaga aylanib bormoqda.

Xar bir shaxsning o‘z davlat hududida, butun jahon bo‘ylab ko’chib yurishi, yashash joyini to‘sqinliklarsiz o‘zgartira olish huquqining mustahkamlanib borishi inson huquqlarining mavjudligi va amalda ta’minlanganligi inson erkinligini belgilovchi muhim ijtimoiy-siyosiy mezonlardan biri bo‘lib bo‘lib xizmat qiladi.

Shu sababli inson huquqlariga doir universal va regional xalqaro standartlar har bir fuqaroning o‘zi yashab turgan mamlakat hududini erkin tark etishi yoki o‘zi xohlaganida o‘z mamlakatiga qaytib kelishga bo‘lgan huquqini o‘ta muhim huquqlardan biri sifatida belgilaydi. Xalqaro maydonda fuqarolarning erkin va xavfsiz xarakat qilishi, davlatlar tomonidan o‘zaro amalga oshiralayotgan islohatlarda davlat va jamiyat manfaatlari bilan bir qatorda aholining manfaatlari ham ko‘zlanishi nazoratini amalga oshirishda xalqaro tashkilotlarni o‘rni kattadir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ***“Inson huquqlarini himoya qilish masalalari bo‘yicha milliy va xalqaro nodavlat tashkilotlar bilan ochiq muloqotimiz faollashib bormoqda”*** [2] - deb ta’kidlagani O‘zbekitson Respublikasida migratsiya sohasini samarali boshqarish va takomillashtirishda xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatib beradi.

Aholi o‘z yashash joyini o‘zgartirishi, u joydan bu joyga ko‘chishi migratsiya jarayonlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Hozirgi kunga qadar aholi migratsiyasi mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham o‘rganilgan bo‘lib, V.A.Ibrohimov tomonidan o‘tkazilgan tahliliy natijalarga ko‘ra mahalliy nashrlarda migratsiya tushunchasiga 36 xil yondashuvlar mavjud[3]. Aholi migratsiyasi jarayonlarini turli soha vakillari o‘rgangan bo‘lib, G.Ionsev ham mahalliy va xorijiy manbalarni tahlil qilgan holda migratsiyani nazariy jixatdan talqin qilishning yaxlit tasnifini yaratgan. Unga ko‘ra, migratsiya jarayonlari nazariy 17 xil yondashuv aniqlangan bo‘lib, siyosiy, iqtisodiy, sof migratsion, demografik, tarixiy yondashuvlardir [4] . Yuqoridagi fikrlar migratsiya tushunchasini to‘liq qamrab ololmaydi albatta. Chunki migratsiya tushunchasi juda keng tushuncha bo‘lib, xar bir tadqiqotchi, olim o‘z sohasidan kelib chiqib migratsiya nazariyasini yoritib beradi.

Migrantlar huquqini himoya qilish, migrantlarning qonuniy mehnat munosabatlarini tartibga solish borisida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlar asosiy o‘rinni egallaydi. Respublikamizda samarali migratsiya siyosati, tashqi migratsiya jarayonlari bilan bog‘liq sharoitlarni takomillashtirishga alohida e’tibor berilib, qator maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Migratsiya muammosini oqilona va ratsional hal etishning davlat siyosatidagi roli hamda ahamiyatini oshirish, migratsiya jarayonlarini xalqaro xususiy

---

[1] *Aminov Shaxrizod Umidbek o‘g‘li* – Toshkent davlat yuridik universiteti uslubchisi.

[2] O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi.

[3] Иброҳимов В.А. Международная миграtsiя населения: теория и история изучения. –Ташкент. 2013. – 69 б.

[4] Игорьян Д.И. Теория и практика исследования миграtsiи населения. - М., Наука, 2011. – 181 б.

tartibga soluvchi ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar tuzish, xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qilish, migrantlarning huquqlarini himoya qilish maqsadida keng ko‘lamli tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda milliy qonunchilikni migratsiyani raqamlashtirish sohasidagi xalqaro-huquqiy standartlar bilan uyg‘unlashtirish, inson huquqlari sohasida uzoq muddatli strategiyalarni qabul qilish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti yer yuzidan tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta’minlash, davlatlarning o‘zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilot hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1945-yilda tuzilgan bo‘lib, ushbu tashkilotga 193 ta davlat a’zodir. Birlashgan Millatlar Tashkilotiga O‘zbekiston musatqillikka erishganidan ko‘p o‘tmay 1992-yil 2-martda a’zo bo‘lgan va 1993-yil 24-oktabrda O‘zbekistonda vakoltaxonasi ochilgan.

Migrantlar mehnat faoliyatini tartibga solish va xalqaro standartlari ishlab chiqilishida Birlashgan Millatlar Tashkilotining normativ aktlari muhim rol o‘ynaydi. Chunki ularda asosiy inson huquqlari o‘z aksini topgan bo‘lib, o‘zini demokratik va dunyoviy hisoblovchi har bir davlat bularni o‘z milliy qonunchilik tizimida nazarda tutishi shartdir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlariga oid va tartibli migratsiya sohasini amalga oshirish, migrantlarning mehnat faoliyatini tartiga solish borasidagi “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”[1] hamda “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro pakti” [2] , Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 45-sessiyasida ma’qullangan “Migrant mehnatkashlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi Konvensiya” [3] xalqaro migratsiya sohasini tartibga solinishida o‘ziga hos o‘rin tutadi.

Migrantlar mehnat faoliyatini tartibga solish va xalqaro standartlari ishlab chiqilishida Birlashgan Millatlar Tashkilotining normativ aktlari muhim rol o‘ynaydi. Chunki ularda asosiy inson huquqlari o‘z aksini topgan bo‘lib, o‘zini demokratik va dunyoviy hisoblovchi har bir davlat bularni o‘z milliy qonunchilik tizimida nazarda tutishi shartdir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlariga oid va tartibli migratsiya sohasini amalga oshirish, migrantlarning mehnat faoliyatini tartiga solish borasidagi “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”[4] hamda “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro pakti” [5] , Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 45-sessiyasida ma’qullangan “Migrant mehnatkashlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi Konvensiya” [6] xalqaro migratsiya sohasini tartibga solinishida o‘ziga hos o‘rin tutadi.

Xalqaro migratsiya tashkilotining maqsadi jalb etilgan barcha tomonlar manfaatlari inobatga olingan holda migratsiyani boshqarish, mamlakatlar hukumati bilan hamkorlik, o‘zi uchun migratsiyani yagona yo‘l deya tanlagan insonlar manfaatining himoyasi, odam savdosi bilan kurash va uning oldini olishdir.

Xalqaro migratsiya tashkiloti tavsiyalari unchalik majburiy tusda bo‘lmasdan, siyosat, qonunchilik va amaliy faoliyat sohasida qo‘llanma vazifasini bajaradi.

1998 yilda Xalqaro mehnat konferensiyasi mehnat sohasidagi asos soluvchi tamoyillar va huquqlar to‘g‘risida Deklaratsiyani qabul qildi. Unda ta’kidlanishicha, XMTga a’zo davlatlar (ular tegishli Konvensiyalarni ratifikatsiyalagani yoki yo‘qligidan qat’i nazar) faqat XMTga a’zo bo‘lganliklarining o‘zi sababli ham mehnat sohasidagi fundamental prinsiplar va huquqlarga “rioya etishlari, ularni qo‘llashlari hamda hayotga sidqidildan tatbiq qilishlari” shart. Bu asos soluvchi tamoyillar va huquqlar quyidagilardan iborat:

---

[1] Международные Конвенции по защите прав человека и борьбе с преступностью. Сб. Международные соглашения и рекомендatsiи Т.ИПК. «Шарк». 1995.

[2] Международные Конвенции по защите прав человека и борьбе с преступностью. Сб. Международные соглашения и рекомендatsiи Т.ИПК. «Шарк». 1995.

[3] Конвенция и рекомендация МОТ.МБТ.Женева.1991.

[4] Международные Конвенции по защите прав человека и борьбе с преступностью. Сб. Международные соглашения и рекомендации Т.ИПК. «Шарк». 1995.

[5] Международные Конвенции по защите прав человека и борьбе с преступностью. Сб. Международные соглашения и рекомендации Т.ИПК. «Шарк». 1995.

[6] Конвенция и рекомендация МОТ.МБТ.Женева.1991.

▪ mehnatkashlar va ish beruvchilarning tashkilotga birlashish hamda jamoa muzokaralarini yuritish huquqi;

▪ majburiy mehnatning barcha shakllariga barham berish;

▪ bolalar mehnatini ta'sirchan taqiqlash;

▪ mehnat va mashg'ulotlar sohasidagi kamsitishlarni bartaraf etish.

Oxirgi yillarda, O'zbekistonning Halqaro Mehnat Tashkiloti bilan birgalikdagi aloqalari kuchayib bormoqda.

2018-2020 yillarda Xalqaro mehnat tashkilotining O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyalarini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi hukumat qarori qabul qilindi.

Hozirgi paytga kelib migratsion jarayonlarning ortishi ko'plab muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, boshqa davlatlarga kelayotgan kishilarning til bilmasligi, mahalliy aholi urf-odatlarini bilmasligi, mahalliy aholi bilan turli nizolarning kelib chiqishi, diniy omil, ishchilarning oddiy gigienik qoidalarga rioya qilmasliklari, turli yuqumli kasalliklarning kelib chiqishi, tibbiy xizmatning vaqtida olinmasligi, shuningdek, turli jamoat joylarida o'zini tutish qoidalarini bilmasligi yoki rioya qilmasligi kabi omillarni ko'rsatish mumkin.

Yuqoridagi holatlarning avj olib ketmasligi uchun migratsion jarayonlarni boshqarish tushunchasi qo'llaniladi. Bunday boshqarish asosida, ish kuchi resurslarini birinchi navbatda, qonuniylashtirish, tartibga solish yotadi.

Migrantlar, o'z tabiatiga ko'ra jamiyatning ishbilarmon va harakatchan a'zolari hisoblanadi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, migratsiya iqtisodiy o'sishga, yangi millatlarning paydo bo'lishiga, madaniyatlarning boyishiga ko'mak bo'lib kelgan.

Migratsion jarayonlarni tahlil etishda, undagi muhim muammoviy masalalarning ham mavjudligini inobatga olish zarur bo'ladi. Ma'lumki, harakat faoliyati mobaynida aksariyat migrantlar ekspluatatsiya qilinadi va ularning huquqlari poymol qilinadi; aksariyat holatlarda o'zlari yo'nalish olgan manzil mamlakatlar madaniyati va turmush tarziga nisbatan integratsiyalashuv qiyin kechishi mumkin; migrantlarni qabul qilayotgan davlatlarning malakali va zarur hisoblangan kadrlariga nisbatan arzon ishchi kuchi sifatida raqobatbardosh bo'lib, ularni ish joylaridan mahrum etishi mumkin. Mana shu va boshqa ko'plab sabablarga ko'ra migratsiya holatini har tomonlama, jumladan huquqiy tartibga solish muhim axamiyatga ega.

Migratsiya sohasini davlatlar tomonidan tartibga solish va migrantlarni xorijiy davlatlarda ijtimoiy ximoyalash yuzasidan Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlararo tashkiloti ham bir qator xalqaro hujjatlar qabul qilgan.

O'zbekiston Respublikasining migratsiya jarayonlari va bu borada davlat boshqaruvini tartibga solish maqsadida migratsiya sohasini tartibga soluvchi aniq qonun mavjud bo'lmasada, mustaqillik davridan boshlab yuzdan ziyod normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, 90 dan ortiq qonun osti hujjatlar – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek idoraviy qarorlar va buyruqlar bilan tartibga solinib kelinmoqda.

Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy davlatlarning malakali mutaxassislari tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4008-son Qarori[1], 2020-yil 15-sentabrdagi "Xavfsiz, tartibli va qonun mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4829-son Qarori [2] qabul qilingan bo'lib, mazkur qaror asosan tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi vakolatli organlarning faoliyatini takomillashtirish, xorijda ishlamoqchi bo'lgan shaxslarni talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish, fuqarolarning chet elda bo'lish davrida huquqlarini himoya qilishni nazarda tutadi.

Yuqorida keltirilgan migrantlar huquqi va erkinliklarini ta'minlovchi normativ-huquqiy hujjatlarga to'xtalishimiz bejizga emas albatta. Fuqarolarning xorijda erkin va xavfsiz mehnat qilishi, inson huquqlarining buzilishini, odam savdosi qurboni

---

[1] "O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy davlatlarning malakali mutaxassislari tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4008-son Qarori. https://lex.uz/docs/4045557

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-sentabrdagi "Xavfsiz, tartibli va qonun mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4829-son Qarori.

boʻlishining oldini olish, xorijda qonuniy mehnat qilish mexanizmini shakillantirish boʻyicha hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan isloxotlarning yaqqol isbotidir.

Xulosa qilib, migratsiya jarayonlarini tartibga solish borasida, eng avvalo, mehnat bozoridagi ishchi kuchi taklifi va unga boʻlgan talab oʻrtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish, "yoʻl xaritasi"ni ishlab chiqish, migratsiya jarayonlarida asosan noqonuniy migratsiyani tartibga solish, nazorat qilish hamda boshqarish, migratsiya jarayonlarini optimallashtirish, aholining, ayniqsa, yoshlarning yuz berayotgan oʻzgarishlarga tayyorligini oʻrganish va maqbullashtirish orqali ijobiy ta'sir koʻrsatishning psixologik-innovatsion yechimlarini asoslash, aholi turmush darajasini oshirish talab etiladi.

Shuningdek, migratsiya sohasidagi davlat boshqaruviga axborot komunikatsiya texnologiyalarini qoʻllash, sohani raqamlashtirishni huquqiy tartibga solish va xorijiy mamlakatlar tajribalarini oʻrgangan xolatda yangi inovatsiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga ega. Bularning barchasi mamlakatimizda olib borilayotgan migratsiya sohasidagi isloxotlarning real hayotda ijobiy natijasini berishini kafolati hisoblanadi.

Migratsiya jarayonlarini raqamlashtirish boʻyicha xalqaro huquqiy xujjatlar xamda Migratsiya tizimiga axborot texnologiyalarini joriy etish boʻyicha xorijiy davlat tajribalarini ayrim xalqaro xujjatlar va davlatlar misolida tahlil qilib, migratsiya sohasida xalqaro miqiyosida tizimli ishlar olib borilayotganini ta'kitlash lozim. Shuningdek xali migratsiya soxasiga axborot komunikatsiyalarini tadbiq etish, raqamlashtirish va sohani dunyo miqiyosida tartibga solish boʻyicha huquqiy xujjatlar ishlab chiqish maqsadqa muvofiq.

Umumjahon migratsiya siyosati va uni amalga oshirish prinsiplari boʻyicha yagona kelishuvga erishilmagan boʻlsada davlatlar tomonidan migratsiyani tartibga solish boʻyicha yangi inovatsiyalarni ishlab chiqish va xar bir davlat boshqaruvidagi migratsiya sohasiga axborot texnologiyalarini tadbiq etilishi soxadagi muammolarni xal qilinishiga omil boʻlishi mumkin.

Migratsiya sohasidagi davlat boshqaruviga axborot qomunikatsiya texnologiyalarini tadbiq qilish, migrantlarni davlat tomonidan boshqarilishida davlatni ma'sul idoralari yoki xususiy agentliklarni tashkil qilish va bu agentliklar orqali yagona integrallashgan portalni tashkil qilish va faoliyatini qonuniy ta'minlash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-sentabrdagi "Xavfsiz, tartibli va qonun mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PQ–4829-son qarori.
3. "Oʻzbekiston Respublikasi hududida xorijiy davlatlarning malakali mutaxassislari tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PQ-4008-son qarori.
4. Abdurahmonov Q. Mehnat iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – Toshkent. 2019. - 297 b.
5. Игорян Д.И. Теория и практика исследования миграции населения. - М., Наука, 2011. – 181 б.
6. Иброҳимов В.А. Международная миграция населения: теория и история изучения. –Ташкент. 2013. – 69 б.

© Sh.U. Aminov, 2022.

Естественные науки

ФАРҒОНА ВИЛОЯТИНИНГ СУВ МАНБАЛАРИНИНГ ЭНЕРГЕТИК ПОТЕНЦИАЛИ ТАҲЛИЛИ (БОҒДОД ТУМАНИ МИСОЛИДА)

О.О. Бозаров[1], Б.А. Кирйигитов[2], Х.С. Ўсаров[3]

Ушбу мақолада Фарғона вилояти Боғдод тумани ҳудудидаги сув манбаларининг кўрсаткичлари, умумий тизими ва бошқариш тизими хақида маълумот берилган. Асосий эътибор йирик сув манбалари ва улар атрофидаги яратилган суғориш тизимига қаратилган. Сув манбаларнинг тизими гидроэнергетик кўрсаткичлари ҳам ўрганилган. Улардан самарали фойдаланиш ҳақида таклифлар ҳам келтирилган.

Калит сўзлар: коллектор, узунлик, сув ўтказиш ҳажми, канал.

Электр энергияга бўлган эхтиёж ва унинг иқтисодий ривожланишга бўлган аҳамияти бугунги куннинг асосий муаммосидир. Охирги йилларда энергетика соҳасига молиявий инвестиция киритиш жуда катта хажмда ортиши кузатилмоқда. Ўзбекистонда мана йўналишда ривожланиш учун катта ишлар олиб борилмоқда [1]. Ҳозирги йилларда электр энергияга бўлган эхтиёжнинг 3-5% га ортиши амалда бўлмоқда. Унга кўра 2030 йилга келиб электр энергия сарфи йилига 6-7% ортиши кутилмоқда. Фарғона видойсининг Фарғона вилояти ва унинг таркибида бўлган Фарғона вилояти бўйича изланишлар олиб борилган [2-4]. Кичик ва бошқа турдаги сув манбаларининг электр энергия олиш мақсадида фойдаланиш бўйича ҳам илмий тадқиқот ишлар чоп этилган [5,9,10]. Фарғона вилоятининг энергетик имкониятларини қўриб чиқишда туманлар кесимида ўрганишга харакат қилдиқ.

Боғдод тумани Фарғона вилоятининг марказий қисмида жойлашган. Ғарбдан – Учкуприк тумани, шарқдан – Олтиарик тумани, шимолдан – Бувайда тумани, шимолий-жанубда – Риштон тумани, ғарбий-жанубий томондан – Ўзбекистон тумани билан чегарадош. Мана шу ҳудудларда электр энергия алмашинувини иашкил этиш йўлга қўйилиши яхши бўларди.

Бу ерда асосий манба сифатида Шимолий Боғдод канали ҳисобланади. Унга барча мавждуд коллектор ва дренаж тизимлари уланган. Кейинги манба-Янги кадам магистрал канали. Унинг кўрсаткичлари ўртача бўлиб (сув ўтказиш хажми 10м^3), у Шимолий Боғдод каналнинг ҳудудини қамраб олади (1а-расм). Туманнинг шарқий қисми шимолий қисмига нисбатан анча сув манбалари билан яхши таъминланган.

[1] *Бозаров Ойбек Одилович* – (PhD) Техника фанлари, Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти, Физика ва киме кафедраси.

[2] *Кирйигитов Бахридин Абдусаттарович* – укитувчи, Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти , Физика ва киме кафедраси.

[3] *Ўсаров Хамидилло Сайфулло ўғли* – катта ўқитувчи, Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти, Физика ва киме кафедраси.

(а) (б)

1-расм. Боғдод тумани шимолий ва шаркий қисми.
(а) – туманнинг шимолий қисми, (б) – туманнинг шарқий қисми.

Қайта тикланувчи электр энергия манбалари (ҚТЭМ), айниқса, кичик гидроэнергетика имкониятидан фойдаланиш бу ерда ўринли. Ҳудудни электр энергия билан таъминлаш учун кичик гидроэнергетик иншоатлар орқали эришса бўлади. Гидротехник потенциал (ГТП) – $1{,}9 \cdot 10^5$ МВтга тенг. Хатто мавжуд энергия заҳирасининг 1-2%дан фойдаланилса ҳам гидроэнергетик потенциал (ГЭП) – $3{,}9 \cdot 10^3$ МВтни ташкил қилади. Жой ташланишнинг сабаби- Боғдод ва Олтиарик туманлар черасида жойлашган, сув миқдори деярли бир хил миқдорда ўтади.

Боғдод туманинг жанубий-ғарбий қисмидан Катта Фарғона канали (КФК) оқиб ўтади. Унинг сув ўтказиш хажми 66 $м^3$ ни ташкил этади. Унинг миқдори йил давомида ўзгариши рўй беради ва йиллар бўйича фарқланади.

КФК нинг ғарбий қисми ЛБК-2, БДК-4-4-4, БШ-2, ЛБК-1 коллектор тизими ва Самарканд тизими (Хўжамқишлоқ (сув ўтказиш ҳажми 8$м^3$) ҳамда Амиробод (сув ўтказиш ҳажми 5$м^3$), Оксув коллектори, улар Бетон Самарканд (сув ўтказиш хажми 18$м^3$, узунлиги 6,8км) ва ўз навбатида Майлибойга уланади (сув ўтказиш хажми 5$м^3$, узунлиги 5,5км) (2а –расм).

(а) (б)

2-расм. Боғдод тумани. Жанубий-ғарбий ва марказий қисми.
(а) жанубий – ғарбий кисм, (б) марказий қисм

Туманнинг жанубий – ғарбий ҳудудида ГТП фойдаланишлари учун КФК ва бир нечта тўйинтирувчи каналлардан фойдаланиш қулай. Масалан, КФК нинг 10 км узунлигида олинган ГТП қиймати - $3{,}3 \cdot 10^6$ МВт, ГЭП қиймати – $(3{,}3\text{-}6{,}0) \cdot 10^4$ МВт ни ташкил этади (2-расм).

Туманнинг марказий кисми асосий сув манбаси – Сўҳ тармоғидир. Унинг тузилиши қуйидагича:

Соҳ тармоғининг сув ўтказиш хажми 15$м^3$ га тенг булиб, у қисман БХ-1 коллекторга (сув ўтказиш хажми 1,5$м^3$ ва узунлиги 4,8км) қурилган сув тўғони орқали ажратилади.

Шу ҳудудда сув манбаларнинг қўрсаткичлари мавжуд гидроўтказиш иншоати (тўғон) лар орқали мунтазам назорати ишлари олиб борилади.



3-расм. Сўҳ тармоғининг тизими.

Ушбу сув манбалар тизими қуйидагилардан иборат:

Соҳ тармоғи. Унинг сув ўтказиш хажми 15м^3. Таркибига Боғишамол, Самарканд, Катта Лашкар, Мехнатобод, Ина, ДМК-1-2 коллектора ва улар ўз навбатида БХ коллектори ҳамда Шимолий Боғдод каналига уланиб кетади.

Ҳудуднинг ГТП ва ГЭП қийматлари иккита асосий сув манбалари (Сўҳ тармоғи ва Шимолий Боғдод каналлари) тизимида шакллантириш мумкин. Уларнинг имкониятларидан фойдаланган ҳолда ГТП – 3,5·10^6 МВт, ГЭП – 0,7·10^4 МВтни ташкил этади (3-расм). ГЭП қиймати 1-2% миқдорда электр энергияси олиниши ҳолати учун ҳисобланган.

Туман бўйича ҚТЭМ орқали олиниши мумкин электр энергия заҳираси умумий холда қуйидагиларга тенг: ГТП - 7·10^{6}МВт, ГЭП - 8,5·10^{4}МВт. Бу электр энергияси миқдори кичик бўлсада ҳозирги кунда электр энергияга эҳтиёжни бироз енгиллатиш йўлида фойдаланишимиз керак.

Умумий хулоса шуки, Боғдод туманида қайта тикланувчи электр энергия манбалари имкониятидан кенгроқ фойдаланиш аҳоли ва ҳудудларнинг иқтисодий, саноат потенциалини оширишда кўмакчи бўлади ва тадбиркорлик объектларни ишлаши учун шароитлар яратади.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Конценция обеспечения Республики Узбекистан электрической энергией на 2020-2030 годы. Электронный ресурс: (gazeta.uz)
2. Чемберисов Э.И., Лесник Т.Ю., Чемберисов Т.Э. Особенности использования стока малых рек Ферганской долины для орошения.
3. Электронный ресурс: (cawater-info.net/bk/improvement-irrigated-agriculture/files/chemb6.pdf)
4. Вода - жизненно важный ресурс для будущего Узбекистана//ПРООН-Ташкент,2007-128 стр.
5. Кирйигитов Б., Кодиров Р. Использование альтернативных видов источников электроэнергии в сельском хозяйстве //Scientific progress.-2021-V.2.-I.7. С.150-154
6. Кирйигитов Б. Use small and medium rivers to solve the problem of supplying electricity //Scientific progress.-2021-V.2.-I.7. С.145-149
7. Боғдод туманининг марказий ва жанубий қисми сув манбалардан фойдаланиш //"Ilm- fan va ta'limda innovatsion yondasuvlar, muammolar, taklif va yechimlar" мавзусидаги 20-сонли республика илмий-онлайн конфеенцияси. Материаллар тўплами. Фарғона, 2022, 30 январ. 1 қисм. 192-194-бет.
8. Кирйигитов Б. Using mini and micro HPP /Science and education.-2021. September-Vol.2.Issie 9.-P.159-163.
9. Bozarov O., Rayimjanov B., Kiryigitov B. Andijon viloyati janubiy qismidagi mavjud suv manbalarining gidroenergyetik potensiali taxlili / "Қишлоқ хўжалигини ривожлантиришда фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясида янги

инновацион технологияларнинг роли” мавзусидаги республика илмий-амалий анжуман. Андижон, 2021. 369-370-betlar.

© О.О. Бозаров, Б.А. Кирйигитов, Х.С. Ўсаров, 2022.

АНАЛИЗ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ВОДНЫХ РЕСУРСОВ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ (НА ПРИМЕРЕ БАГДАДСКОГО РАЙОНА)

О.О. Бозаров, Б.А. Кирйигитов, Х.С. Усаров

Аннотация. Данная работа посвящена анализу информации об ирригационной системе Багдадского района Ферганской области. Основное внимание уделено показателям крупных водных источников и территорий их системе водообеспечения. Изучены гидроэнергетические показатели водных источников. Приводятся информация о форме использования, имеющихся энергетических ресурсов.

Ключевые слова: коллектор, длина, объем водного потока, канал.

© О.О. Бозаров, Б.А. Кирйигитов, Х.С. Усаров, 2022.

Технические науки

ПОВЫШЕНИЕ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ЗДАНИЙ

О.В. Слобожанинова[1]

